

## YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 160 (1221), 2024-yil 10-avgust, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



## MARKAZIY OSIYODA BIRDAMLIK VA MINTAQAVIY O'ZIGA XOSLIK TUYG'USI TOBORA MUSTAHKAMLANIB BORMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan 7-9-avgust kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo'ldi.



Prezident Shavkat Mirziyoyev 9-avgust kuni Ostona shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining oltinchi Maslahat uchrashuvida ishtirok etdi.

Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev raisligida o'tgan tadbirida Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali

Rahmon, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov, shuningdek, faxriy mehmonlar sifatida Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev va BM Tning Markaziy Osiyo

uchun preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi rahbari Xaxa Inmadze ham qatnashdi. Kun tartibiga muvofiq, mintaqada ko'p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish, jumladan,

siyosiy muloqotni rivojlantirish, savdo, investitsiyalar, transport, energetika, qishloq xo'jaligi va ekologiya sohaslarida qo'shma dastur va loyihalarni ilgari surish, madaniy-gumanitar almashinuvni faollashtirish, shuningdek, zamonaviy tahdid va xatarlarga qarshi chora ko'rish masalalari muhokama qilindi.

O'zbekiston rahbari o'z nutqida mintaqada birdamlik va hamjihatlikni mustahkamlash, ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish borasidagi umumiy sa'y-harakatni yuqori baholadi.

— Ochiq va samarali muloqotlarimiz, ilgari surilgan muhim tashabbuslar, ishga tushirilgan ko'p tomonlama loyihalar va dasturlar, amalga oshirilgan ko'plab qo'shma tadbirlar va shu kabi boshqa harakatlarimiz mintaqaviy qiyofasini va imijini tubdan o'zgartirdi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Mintaqa mamlakatlari samarali hamkorlik qilib, muhim masalalarni hal eta boshlagani ta'kidlandi. O'zaro savdo, investitsiyalar, yuk tashish hajmi, fuqarolarning tashriflari bir necha barobar ortdi. Xorijiy davlatlarning mintaqaga qiziqishi sezilarli darajada oshdi, "Markaziy Osiyo plyus" formatidagi turli uchrashuvlar shundan dalolat beradi.

— Bugun biz umumimintaqaviy o'ziga xoslikni shakllantirish jarayoni boshlangani haqida ishonch bilan aytishimiz mumkin, — dedi O'zbekiston Prezidenti.

Davlatimiz rahbari hamkasblarining mintaqaviy o'zaro hamkorlik mexanizmlari va institutlarini ishga tushirish, jumladan, milliy koordinatlar, tarmoq vazirliklari va idoralari vakillari uchrashuvlari bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlaydi. Hozirgi bosqichda qabul qilinayotgan qarorlarni amalga oshirish va qo'shma loyihalarni ilgari surish uchun ta'sirchan vositalar kerakligini ta'kidlaydi.

— Mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirish va uzoq muddatli sheriklik kun tartibini boyitish uchun Maslahat uchrashuvi formatini yanada takomillashtirish masalalarini birgalikda ko'rib chiqish vaqti keldi, — dedi O'zbekiston yetakchisi.

Ushbu masalalar yuzasidan konseptual tavsiya va takliflar ishlab chiqish uchun Markaziy Osiyo ekspert forumining navbatdagi yig'ilishini mamlakatimizda o'tkazish taklif etildi.

Dunyodagi hozirgi vaziyatga to'xtalib, O'zbekiston Prezidenti Markaziy Osiyo o'zining geosiyosiy joylashuvi tufayli global ishonch inqirozi va mojarolar keskinlashuvining barcha salbiy oqibatlarini boshidan kechiryotganini qayd etdi.

An'anaviy savdo-transport zanjirlari buzildi, mintaqaviy mamlakatlari sanksiya siyosatining asiriga aylandi, logistika xarajatlari sezilarli darajada oshdi, inflyatsiya bosimi kuchaymoqda, jahon kapital bozorida imkoniyatlar qisqarmoqda, proteksionizm kuchaymoqda va yangi-yangi to'siqlar paydo bo'lmoqda.

Bundan tashqari, Afg'onistondagi vaziyatning rivojlanishi bilan bog'liq masalalar xalqaro kun tartibida ikkinchi darajaga tushib qoldi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining farovonligi ko'p jihatdan umumiy sa'y-harakatlarga, yaqindan hamkorlik qilish, qat'iy choralar ko'rish va mintaqaviy manfaatlarini birgalikda ilgari surishga tayyorlikka bog'liq. Shu munosabat bilan strategik hujjat — Mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash konsepsiyasini ishlab chiqish taklif etildi.

Global jarayonlarning Markaziy Osiyoning barqaror rivojlanishiga ta'siri tahliildan kelib chiqib, O'zbekiston Prezidenti mintaqada amaliy hamkorlikning qator ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi.

Davomi 2-beta

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI RAHBARLARI MASLAHAT UCHRASHUVIDAGI NUTQI

Qadrlil hamkasblar!

Qozog'iston Respublikasi Prezidenti hurmatli Qosim-Jomart Kemelevich Toqayevga an'anaviy do'stona qabul va sammit yuksak darajada tashkil etilgan uchun bildirilgan samimiy minnatdorlik so'zlariga qo'shilaman.

Hurmatli Qosim-Jomart Kemelevich, sizning mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash va mamlakatlarimizning umumiy manfaatlarini ilgari surish yo'lidagi faol sa'y-harakatlarinigizni alohida ta'kidlab o'tmoqchiman.

Sizning tashrifingiz arafasida e'lon qilingan "Markaziy Osiyo Renessansi: barqaror taraqqiyot va farovonlik sari" dasturiy maqolangizda birgalikda olib borayotgan ishlarimiz va yangi

bosqichda mintaqaviy kooperatsiya istiqbollari chuqur tahlil qilib bergansiz.

Olti yil oldin aynan shu yerdan, Ostona biz birinchi Maslahat uchrashuvini o'tkazgan edik.

O'tgan davr mobaynida barcha mamlakatlarimizda, hech mubolag'asiz, tarixiy uchrashuvlar — sammitlar bo'lib o'tdi. Ko'p asrlik do'stlik va yaxshi qo'shinchilik solnomasida yangi sahifa ochildi.

Ochiq va samarali muloqotlarimiz, ilgari surilgan muhim tashabbuslar, ishga tushirilgan ko'p tomonlama loyihalar va dasturlar, amalga oshirilgan ko'plab qo'shma tadbirlar va shu kabi boshqa harakatlarimiz mintaqaviy qiyofasini va imijini tubdan o'zgartirdi.

Biz samarali hamkorlik qilib, muhim masalalarni hal qila boshladik. O'zaro savdo, investitsiya, yuk tashish, fuqarolarning tashriflari hajmi bir necha barobar ko'paydi.

Tashqi sheriklarimiz tomonidan amaliy qiziqish sezilarli darajada ortdi. Yuqorida aytilganidek, "Markaziy Osiyo plyus" formatidagi turli uchrashuvlar shundan dalolat beradi.

Bugun biz umumimintaqaviy o'ziga xoslikni shakllantirish jarayoni boshlangani haqida ishonch bilan aytishimiz mumkin.

Fursatdan foydalanib, barcha hamkasblarimiza birdamlik va hamjihatlikni mustahkamlash, mamlakatlarimiz tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida mintaqadagi ko'p qirrali

hamkorlikni kengaytirish yo'lidagi umumiy sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlaganliklari uchun minnatdorlik bildiraman.

Men bugun mintaqaviy o'zaro hamkorlik mexanizmlari va institutlarini ishga tushirish, jumladan, milliy koordinatlar, tarmoq vazirliklari va idoralari vakillari uchrashuvlari bo'yicha bildirilgan takliflarni qo'llab-quvvatlayman.

Hozirgi bosqichda biz qabul qilgan qarorlarni amalga oshirish va qo'shma loyihalarni ilgari surish uchun samarali vositalar kerak, deb hisoblayman.

Umuman olganda, mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirish va uzoq muddatli sheriklik kun tartibini boyitish uchun Maslahat uchrashuvi

formatini yanada takomillashtirish masalalarini birgalikda ko'rib chiqish vaqti keldi, deb hisoblayman.

Shu maqsadda biz mintaqaviy mamlakatlari yetakchi tahlil markazlari va ilmiy-tadqiqot institutlarining Markaziy Osiyo ekspert forumining navbatdagi yig'ilishini O'zbekistonda o'tkazishni taklif qilamiz. Ularning konseptual tavsiyalari va takliflarini keyingi sammitimiz davomida birgalikda ko'rib chiqishimiz mumkin.

Hurmatli uchrashuv ishtirokchilari!

Markaziy Osiyo o'zining geosiyosiy joylashuvi tufayli global ishonch inqirozi va mojarolar keskinlashuvining barcha salbiy oqibatlarini to'liq boshidan kechirmoqda.

Davomi 2-beta

## O'ZBEKISTON VA YAPONIYA YETAKCHILARI TELEFON ORQALI MULOQOT QILDILAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 9-avgust kuni yapon tomonining tashabbusi bilan Yaponiya Bosh vaziri Fumio Kishida bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari Yaponiyaning janubi-sharqida kuchli zilzila ro'y bergani va sunami kutilayotganidan xavotir bildirdi.

O'zbekiston Yaponiya tomonining "Markaziy Osiyo + Yaponiya" birinchi sammitini o'tkazish va Bosh vazir Kishidaning joriy yil 10-11-avgust kunlariga rejalashtirilgan mamlakatimizga rasmiy tashrifi

muddatlarini ko'chirish to'g'risidagi qarorini to'liq tushunishi ta'kidlandi. Tayyorgarlik tadbirlarini davom ettirish va tashrifni tashkil etishning yangi muddatlarini diplomatik kanallar orqali kelishishga ahdlashib olindi.

O'ZA

## PREZIDENTIMIZ PARIJ OLIMPIADASI G'OLIBLARINI TABRIKLADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Parij Olimpiadasida o'z vazn toifalarida barcha raqiblarini mag'lub etib, oltin medallarni qo'lga kiritgan hamda ikki karra olimpiya chempioniga aylangan taekvondochimiz Ulug'bek Rashitov va bokschimiz Hasanboy Do'smatov bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari sportchilarni qizg'in tabriklab, terma jamoamiz tomonidan bir kun ichida Olimpiadaning ikkita oltin medali qo'lga kiritilgan O'zbekiston sporti uchun tarixiy voqea bo'lganini katta mamnuniyat bilan qayd etdi. Yigitlarimizning dadil va ishonchli chiqishlari, yuksak mahorati va mardlikli chinakam qahramonlik namunasi bo'lgani, Yangi O'zbekistonning yoshlari nimalarga qodir ekanini ko'rsatgani, xalqimizga ulkan

kuch va g'urur bag'ishlaganini ta'kidlaydi. Murabbiylari, ota-onasi va yaqinlariga minnatdorlik bildirdi.

Ulug'bek Rashitov va Hasanboy Do'smatov alohida e'tibor va yuksak ishonch, sportchilarga barcha sharoitlar yaratilganini uchun davlatimiz rahbariga tashakkur izhor etib, g'alabalarini Yangi O'zbekistonga bag'ishlashlarini aytdilar.

O'ZA

## O'ZBEKISTON QURUVCHILARIGA BAYRAM TABRIGI

Hurmatli do'stlar!

Avvalo, o'z hayotini dunyodagi eng sharafli kasblardan biri bo'lgan qurilish sohasiga bag'ishlagan siz, azizlarni qutlug' kasb bayramingiz bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etib, barchangizga o'zimizning chuqur hurmatim va ezig' tilaklarimni izhor etaman.

Hech shubhasiz, bugun biz ko'p millatli xalqimiz bilan birgalikda barpo etayotgan Yangi O'zbekistonda yuz berayotgan eng muhim o'zgarishlar haqida so'z yuritganda, barcha mintaqaviy va hududlarimiz qamrab olgan keng ko'lamli qurilish va obodonlashtirish ishlari haqida alohida fikr yuritishimiz tabiiydir.

Chindan ham, so'nggi yillarda yurtimiz ulkan qurilish va bunyodkorlik mamlakatiga aylandi. Xalqimizning ko'z o'ngida qad rostlayotgan zamonaviy turar joylar, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish majmualari, muhandislik-kommunikatsiya, yo'l va transport tarmoqlari, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport muassasalari, bog' va xiyobonlar, obod shahar va qishloqlarimiz qiyofasida sizlarning beqiyos kuch-g'ayratingiz, yuksak salohiyat va mahoratingiz mujassam ekanini e'tirof etgan holda, barchangizni yangi hayot bunyodkorlari deya e'zozlab, fidokorona mehnatingiz uchun chin dildan tashakkur bildiraman.

Qadrlil bunyodkorlar! Ma'lumki, hozirgi kunda qurilish sohasi mamlakatimiz iqtisodiyotining tayanch tarmoqlaridan biriga aylangan. Joriy yilning birinchi yarmida qurilish ishlari hajmi 2023-yilga nisbatan 10 foizdan ziyod ortib, salkam 80 trillion so'mga yetgani, sohaning yalpi ichki mahsulotimizdagi ulushi

6 foizdan ko'proqni tashkil etayotgani buning yaqqol tasdiq'idir.

Eng asosiysi, barcha sohalar qatori qurilish tarmog'idagi ulkan ishlarimiz ham inson qadrini ulug'lash, uning hayotiy manfaatlarini ta'minlashga qaratilmoqda. O'tgan yili birgina investitsiya dasturi doirasida 2 ming 526 ta ijtimoiy va infratuzilma obyektlarida qurilish va rekonstruksiya ishlari bajarilgani, "Tashabbusli budget" tizimi asosida mahallalarimizdagi 4 mingdan ortiq obyektga 4,5 trillion so'mlik qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilgani ham shundan dalolat beradi.

Ayniqsa, keyingi yillarda xalqimiz uchun zamonaviy uy-joylar barpo etish bo'yicha misli ko'rilmagan natijalar qo'lga kiritilayotganini ta'kidlash lozim. Oxirgi yetti yarim yilda jami 412 mingta kvartiradan iborat yoki 26 million kvadrat metrlik qariyb 10 mingta uy-joylar barpo etilgani misolida bunga to'la ishonch hosil qilish mumkin.

Bu ishlarimizning davomi sifatida joriy yilda 52 ta hududda "Yangi O'zbekiston" massivlari bunyod etilmoqda. "Yangi Toshkent" va Olimpiya shaharchasi kabi mega obyektlarimizda ham bunyodkorlik ishlari yuqori sur'atlar bilan olib borilmoqda. Sohada "yashil" standartlar, energiyani tejaydigan yangi texnologiyalar, "aqlli shahar", "aqlli uy" tamoyillari faol qo'llanmoqda.

Qurilish sohasida birinchi marta yuqori malakali kadrlar, mustahkam materiallar, mashina va mexanizmlar bazasi hamda mezonlarni o'zida ifoda etadigan resurslar milliy klassifikatori shakllandi, mutaxassislarni sertifikatlash tizimi joriy qilinib, Kompetensiyani rivojlantirish instituti tashkil etildi. Hurmatli bayram ishtirokchilari!

Qurilish sohasini bugungi shiddatli zamon talablariga mos holda rivojlantirish, shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqishda jamoatchilik fikrini o'riganish va ularning ijrosi bo'yicha jamoatchilik nazoratini o'rnatish bugungi kunda g'oyat dolzarb ahamiyatga ega.

Shuningdek, loyiha tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish, qurilish materiallari bozoriini tartibga solish, raqamlashtirish ishlarini chuqurlashtirish, bino va inshootlarda qulay va ekologik xavfsiz yashash sharoitlarini yaratish, energiya samaradorligini oshirish, qurilish ishlari jarayonida xavfsizlik va ta'sirchan nazoratni ta'minlash bo'yicha oldimizda yuksak vazifalar turganini siz — sohada katta bilim va tajribaga ega bo'lgan ishchi va quruvchi, me'mor va muhandislar, olim va mutaxassislar yaxshi bilasiz.

Ishonchim komil, sizlar ana shunday murakkab va mas'uliyatli vazifalarni muvaffaqiyatli ado etishda yanada jonbozlik ko'rsatib, qurilish sohasi ravnagini yangi bosqichga olib chiqasizlar.

Albatta, soha vakillarining mashaqqatli mehnatini rag'batlantirish, ish va turmush sharoitlarini yaxshilash masalalariga biz bundan buyon ham ustuvor ahamiyat qaratamiz.

Siz, azizlarni kasb bayramingiz bilan yana bir tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, tугanmas kuch-g'ayrat, xonadonlaringizga tinchlik-xotirjamlik va fayz-u baraka tilayman.

Jonajon Vatanimizni har tomonlama go'zal va obod etishda sizlarga yangi zafar va omadlar yor bo'lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI RAHBARLARI MASLAHAT UCHRASHUVIDAGI NUTQI

## Boshlanishi 1-betda

Shuni ta'kidlab o'tmoqchiman, Markaziy Osiyoning buguni va kelajagi, mamlakatlarimiz va xalqlarimiz farovonligi ko'p jihatdan umumiy sa'y-harakatlarimizga, yaqindan hamkorlik qilish, qat'iy choralar ko'rish va mintaqa manfaatlarini birgalikda ilgari surishga tayyorligimizga bog'liq.

Tashqi siyosat idoralarimiz tomonidan strategik hujjat — Mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash konsepsiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Qadrli hamkasblar! Amaliy mintaqaviy hamkorlikning, bizning nuqtayi nazardan, ustuvor hisoblangan yo'nalishlariga qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman.

**Birinchi.** Bizga yangi drayverlar, uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy sheriklikni rivojlantirishning yangi modeli kerak.

Mamlakatlarimiz tabiiy savdo sheriklari bo'lib, milliy iqtisodiyotlarimiz bir-birini to'ldiradi.

Shu bilan birga, tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda mamlakatlarimiz umumiy tovar aylanmasida ichki mintaqaviy savdoning ulushi sezilarli darajada emas. Markaziy Osiyoda to'laonli erkin savdo hududini shakllantirish yo'lida hamon to'siqlar saqlanib qolmoqda.

Biz xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda tahlil o'tkazdik va kelgusi besh yilda o'zaro savdo hajmini ikki barobar oshirishni ta'minlaydigan birinchi navbatdagi chora-tadbirlarni belgilab oldik. Bu besh yuzdan ortiq pozitsiyadagi tovarlardir.

Bu o'rinda avvalo tarif va notarif to'siqlarni bartaraf etish, muvofiqlik sertifikatlarini o'zaro tan olish va reglamentlarni unifikatsiya qilish, bo'xona operatsiyalari va fitosanitariya tartib-taomillarini raqamlashtirish, davlat xaridlari jarayonida o'zaro ishtirok etish imkoniyatlarini ko'rib chiqish kabi chora-tadbirlar haqida gap bormoqda.

Yagona mintaqaviy bozorni shakllantirish bizning uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan strategik maqsadimiz bo'lishi kerak.

Ushbu masalalarning barchasini ko'rib chiqish uchun mamlakatlarimiz Bosh vazirlari o'rinbosarlari darajasida Iqtisodiy kengash — muntazam ravishda uchrashuvlarni yo'lga qo'yishni taklif qilamiz.

Biz shunday birinchi uchrashuvni kelgusi yili Toshkent shahrida tashkil qilishga

va uning doirasida Hududlar forumi va tarmoq konferensiyalari, sanoat salohiyati ko'rgazma-yarmarkasi, eksport imkoniyatlari taqdimotlarini tashkil etgan holda Markaziy Osiyo biznes hamkorligi haftaligini o'tkazishga tayyormiz.

**Ikkinchi.** Sanoat kooperatsiyasini o'zaro qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish.

Biz muntazam bunday hamkorlik bo'yicha muvaffaqiyatli namunalarga egamiz. Chegaraoldi hamkorlikka doir maxsus hududlar, zamonaviy avtomobillar, maishiy elektronika, farmatsevtika preparatlari ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi va to'qimachilik klasterlari, logistika markazlari va infratuzilma loyihalari shular jumlasidandir.

Biz kuchlarimizni birlashtirib, qisqa qo'shilgan qiymat zanjirlarini yaratish, yetakchi xalqaro kompaniyalardan investitsiya va texnologiyalarni jalb qilish, kooperatsiyaning yangi shakllarini joriy etish orqali mintaqani sanoatlashtirishning yagona xaritasini shakllantirishga erisha olamiz, deb hisoblayman.

Ushbu ustuvor yo'nalish bo'yicha vazirlar darajasida Kengash faoliyatini yo'lga qo'yish va dasturiy hujjat tayyorlash muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, Markaziy Osiyo investitsiya kengashini ta' sis etish, mintaqa mamlakatlari Innovatsion rivojlanish bankini tashkil etish, qo'shma investitsiya forumlarini muntazam o'tkazib borish ham istiqbolli masalalar hisoblanadi.

Agar ishlab chiqarishning innovatsion usullari, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, hosildorlikni oshirish, chuqur qayta ishlashni rivojlantirish, seleksiya sohasida ilmiy ishlarni kuchaytirish, klasterlar va "aqlii fermalar"ni yaratish muhimdir.

Toshkent shahrida sentabr oyida BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti bilan hamkorlikda dengizga chiqish imkoniyati bo'lmagan mamlakatlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha xalqaro forum tashkil etish niyatidamiz. Forum doirasida Mintaqaviy strategiya ishlab chiqish uchun qishloq xo'jaligi vazirlarining alohida uchrashuvini o'tkazishni taklif qilamiz.

**Beshinchi.** Global iqlim o'zgarishi oqibatlarini mamlakatlarimizning har birida sezilmoqda. Harorat ko'tarilishi, muzliklar erishi, toshqinlar, qurg'oqchiliklar, chang bo'ronlari va boshqa ko'plab tabiat hodisalari jiddiy talafotlar yetkazishda davom etmoqda.

quvvatlaganliklari uchun hamkasblarimdan minnatdorman.

Bugun kun tartibida Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo hamda Yaqin Sharq bozorlariga chiqishni ta'minlovchi ko'plab loyihalar mavjud.

Kelishilgan tarif siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, milliy tashuvchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha imtiyoz va preferensiyalarni qo'llash, transport tarmoqlari va infratuzilmasini modernizatsiya qilish, chegaralar punktlarining o'tkazish qobiliyatini oshirish, transport sektorini raqamlashtirish masalalari tizimli yondashuvni talab qiladi.

Fursatdan foydalanib, Transport va tranzit to'g'risidagi bitimni qabul qilish bo'yicha taklifimizni qo'llab-quvvatlaganiz uchun minnatdorlik bildiraman. Uning qoidalarni amalga oshirish maqsadida transport vazirliliklari, tashuvchilar va ekspeditorlar, logistika kompaniyalari va mutaxassislar ishtirokida Ekspertlik konferensiyasini o'tkazishni taklif qilamiz.

**To'rtinchi.** Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasida ishlarni muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirish lozim.

BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining milliy ekspertlari va mutaxassislari ta'kidlashicha, biz nafaqat asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha ichki iqtisodiy ehtiyojlarni ta'minlashimiz, balki xalqaro bozorda mustahkam o'rinlarni egallashimiz mumkin.

Agar ishlab chiqarishning innovatsion usullari, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, hosildorlikni oshirish, chuqur qayta ishlashni rivojlantirish, seleksiya sohasida ilmiy ishlarni kuchaytirish, klasterlar va "aqlii fermalar"ni yaratish muhimdir.

Toshkent shahrida sentabr oyida BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti bilan hamkorlikda dengizga chiqish imkoniyati bo'lmagan mamlakatlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha xalqaro forum tashkil etish niyatidamiz. Forum doirasida Mintaqaviy strategiya ishlab chiqish uchun qishloq xo'jaligi vazirlarining alohida uchrashuvini o'tkazishni taklif qilamiz.

**Beshinchi.** Global iqlim o'zgarishi oqibatlarini mamlakatlarimizning har birida sezilmoqda. Harorat ko'tarilishi, muzliklar erishi, toshqinlar, qurg'oqchiliklar, chang bo'ronlari va boshqa ko'plab tabiat hodisalari jiddiy talafotlar yetkazishda davom etmoqda.

Joriy yilning noyabr oyida Ozarbayjonda bo'lib o'tadigan Iqlim sammiti davomida mamlakatlarimiz yagona pozitsiya bilan chiqishlari mumkin.

Bu o'rinda so'z xalqaro jamoatchilik, fondlar va donorlik tashkilotlari e'tiborini ushbu o'tkir muammolar, jumladan, Orol fojiasiga yechim topishga qaratish maqsadida mintaqadagi ekologik vaziyat haqida qo'shma taqdimot o'tkazish haqida ketmoqda.

Bizning yangi takliflarimiz qatorida Markaziy Osiyoni barqaror rivojlantirish kompleks dasturi, Transchegaraviy daryolarning suv resurslaridan oqilona foydalanishning mintaqaviy strategiyasini ishlab chiqish va qabul qilish masalalari ham bor.

**Oltinchi.** Energetika sektoridagi hamkorlik ayniqsa dolzarbdir.

Bugungi kunda mintaqaviy ko'lamda elektr energiyasi generatsiyasini oshirish va uni uchinchi mamlakatlarga eksport qilish bo'yicha qator strategik loyihalar ishlab chiqilmoqda. Bundan tashqari, atom energetikasini rivojlantirish, uglevodorlarni yetkazishni oshirish bo'yicha rejalar mavjud.

Bu energetika vazirlarining doimiy uchrashuvlari doirasida muvofiqlashtirilgan ishlarni olib borish uchun muhim yo'nalishlardan biri, deb hisoblayman.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Biz mamlakatlarimiz parlamentlari o'rtasida o'zaro samarali almashuvlarni rivojlantirishni yuqori baholaymiz va har tomonlama qo'llab-quvvatlaymiz.

Kelgusi oyda ko'hna Xiva shahrida mintaqa mamlakatlarining navbatdagi Parlamentararo forumini o'tkazishni rejalashtirganmiz.

Madaniy-tarixiy merosning umumiyligini hisobga olgan holda, xalqlarimizning mintaqa kelajagi uchun daxldorligi, birdamligi, umumiy mas'uliyatni anglashini kuchaytirishga katta e'tibor berishimiz lozim.

O'yinamanki, "Markaziy Osiyo tarixi va madaniyati: yagona o'tmish va umumiy kelajak" xalqaro media platformasining tezroq ishga tushirilishi ushbu yo'nalishda muhim amaliy qadam bo'ladi.

Mintaqa xalqlarining o'zaro bir-birini tushunishi va birdamligini yanada mustahkamlash maqsadida mintaqaviy o'ziga xoslikni shakllantirishning amaliy jihatlariga bag'ishlangan ilmiy forum o'tkazishni taklif qilamiz.

"Markaziy Osiyo yoshlar kun tartibi — 2030"ni ilgari surish va yosh avlodni hamkorlik

dasturlariga jalb qilish uchun doimiy ravishda Innovatsion g'oyalar va loyihalar mintaqaviy yoshlar tanlovinini o'tkazishni taklif qilamiz.

Markaziy Osiyo ta'lim va akademik almashuv dasturini qabul qilish va mamlakatlarimizdagi yetakchi oliy o'quv yurtlarining diplomlarini o'zaro tan olish to'g'risidagi bitimni ishlab chiqishni muhim deb hisoblaymiz.

Shuningdek, mintaqa davlatlarining iqtidorli talabalarini o'qishi uchun o'zaro kelishuvlar asosida stipendiyalar ajratishni taklif qilamiz.

Ushbu loyihalarni batafsil muhokama qilish uchun Toshkent shahrida oktabr oyida Markaziy Osiyo birinchi ta'lim forumini o'tkazish niyatidamiz.

Mamlakatlaringiz milliy delegatsiyalari tarkibiga ta'lim vazirlari, yetakchi universitetlari rektorlari, olimlar va ekspertlari qo'shilsa, biz bundan mamnun bo'lar edik.

Turizm sektori mintaqaviy hamkorlikning yangi drayveriga aylanib bormoqda. Mamlakatlarimizdagi ichki mintaqaviy turistik oqim ulushi so'nggi yillarda sezilarli darajada oshdi.

Turistik almashuvni kengaytirish maqsadida "Bitta tur — butun mintaqa" tamoyili bo'yicha milliy ID-kartalarni o'zaro tan olish va ommaviy turistik mahsulotlarni ishlab chiqish masalalarini o'rganib chiqishni taklif qilamiz.

Hurmatli hamkasblar!

Bugun biz muhim hujjatlarni, shu jumladan, Mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishni 2040-yilgacha mo'ljallangan konsepsiyasini imzolayapmiz.

Munosabatlarimizning shartnomaviy-huquqiy bazasini mustahkamlash va uni yanada rivojlantirish uchun Markaziy Osiyoda strategik sheriklik va hamkorlik to'g'risida ko'p tomonlama bitimni imzolashga tayyorlashni taklif qilamiz.

Ishonchim komil, bugungi uchrashuvning sermahsul natijalari mintaqada do'stlik va yaxshi qo'shniçilik yanada mustahkamlanishiga, xalqlarimizning farovonligi yo'lida o'zaro amaliy hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladi.

Fursatdan foydalanib, Sizlarning barchangizni kelgusi yil avgust oyida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi sammitida ishtirok etish uchun O'zbekistonga taklif qilaman.

Hurmatli hamkasblar! Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti hurmatli Ilhom Haydarovich Aliyevni samimiy qutlayman.

Ozarbayjonning ishtiroki mintaqamizning ulkan salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun yangi imkoniyatlarni ochmoqda.

Bu o'rinda gap eng avvalo, savdo, sanoat, qishloq xo'jaligi, energetika, transport va logistika sohalarida qo'shma kooperatsiya loyihalari ilgari surish, madaniy-gumanitar va sayohat almashuvlarini rivojlantirish haqida bormoqda.

Biz muvaffaqiyatli ko'p tomonlama hamkorligimiz borasida bir qator misollarni keltirishimiz mumkin. Jumladan, Yevropaga "yashil" energiya yetkazib berishni tashkil etish masalasi ekspertlar darajasida ishlab chiqilmoqda.

Bundan tashqari, xalqaro bozorlarga chiqadigan samarali transport yo'laklarini shakllantirish masalalari muhokama qilinmoqda.

Rejalashtirilayotgan biznes-forumlar, sanoat ko'rgazmalari va boshqa ishlab olinadigan tadbirlar ozarbayjonlik sheriklarimizning faol ishtirok etishi tarafdorimiz.

Uchrashuvimizning birinchi qismida shu yil noyabrda Ozarbayjonda bo'lib o'tadigan Iqlim sammitida ekologik xatarlarning oldini olish bo'yicha muvofiqlashtirilgan sa'y-harakatlarimiz doirasida qo'shma tadbirlarni o'tkazish muhim ekani haqida gapirib o'tdim.

Yana bir bor hurmatli Ilhom Haydarovichga Global sammitni muvaffaqiyatli o'tkazishini tilyayman.

Bu shubhasiz, bizning umumiy yutuq'imizdir.

Uchrashuvimizda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi rahbari Xaxa Imnadze janoblarini ko'rib turganimdan xursandman.

Siz rahbarlik qilayotgan markaz chindan ham mintaqaviy muqotni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shayotganini ta'kidlamoqchiman.

Yaqinda Bosh kotib Antoniu Gutierrez janoblari mintaqamiz mamlakatlariga tashrif buyurib, Markaziy Osiyoda jadal yaqinlashuv va integratsiya jarayonlariga yuksak baho bergani va qat'iy qo'llab-quvvatlagani so'zimizning tasdiq'idir.

Ushu kishiga bizning eng ezgu tilaklarimizni yetkazishingizni so'rayman.

Hurmatli Qosim-Jomart Kemelevichga sammitimizni yuksak darajada tashkil etgani uchun yana bir bor minnatdorlik izhor etaman. E'tiboringiz uchun rahmat.

## MARKAZIY OSIYODA BIRDAMLIK VA MINTAQAVIY O'ZIGA XOSLIK TUYG'USI TOBORA MUSTAHKAMLANIB BORMOQDA

## Boshlanishi 1-betda

Birinchi navbatda, uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan iqtisodiy sheriklikni rivojlantirishning yangi drayverlari va modeli zarurligi ta'kidlandi.

— Mamlakatlarimiz tabiiy savdo sheriklari bo'lib, milliy iqtisodiyotlarimiz bir-birini to'ldiradi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shu bilan birga, bugungi kunda mamlakatlarimiz umumiy tovar aylanmasida mintaqaviy savdoning ulushi kichik. Mintaqada to'laonli erkin savdo hududini shakllantirish yo'lida hamon to'siqlar saqlanib qolmoqda.

Tahlillarga ko'ra, birinchi navbatdagi chora-tadbirlarni amalga oshirish yaqin besh yilda o'zaro savdo hajmini ikki barobar ko'paytirish imkonini berishi ta'kidlandi.

Tarif va notarif to'siqlarni bartaraf etish, muvofiqlik sertifikatlarini o'zaro tan olish va reglamentlarni unifikatsiya qilish, bo'xona operatsiyalari va fitosanitariya tartib-taomillarini raqamlashtirish, davlat xaridlaridan foydalanishni o'zaro yengillashtirish imkoniyatlarini ko'rib chiqish shular jumlasidan.

Yagona mintaqaviy bozorni shakllantirish uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan strategik maqsad bo'lishi kerak.

Davlatimiz rahbari bu masalalarning barchasini ko'rib chiqish uchun Iqtisodiy kengash — Bosh vazir o'rinbosarlari darajasida muntazam uchrashuvlarni yo'lga qo'yish taklifini bildirdi.

O'zbekiston kelgusi yilda ushbu uchrashuvning birinchiini qabul qilishga hamda uning doirasida Hududlar forumi va tarmoq konferensiyalari, sanoat salohiyati ko'rgazma-yarmarkasi, eksport imkoniyatlari taqdimotlarini tashkil etgan holda Markaziy Osiyo biznes hamkorligi haftaligini o'tkazishga tayyor.

Sanoat kooperatsiyasini rag'batlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Bu borada muvaffaqiyatli misollar mavjud. Xususan, chegaraooldi hamkorlikka doir maxsus hududlar, zamonaviy avtomobillar, maishiy elektronika,

farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish loyihalari, agrar va to'qimachilik klasterlari, logistika markazlari va infratuzilma obyektlari mavjud.

— Biz kuchlarimizni birlashtirib, qisqa qo'shilgan qiymat zanjirlarini yaratish, yetakchi xalqaro kompaniyalardan investitsiya va texnologiyalarni jalb qilish, kooperatsiyaning yangi shakllarini joriy etish orqali mintaqani sanoatlashtirishning yagona xaritasini shakllantirishga erisha olamiz, — dedi davlatimiz rahbari.

Bu borada vazirlar darajasida Kengash ta' sis etish va dasturiy hujjat tayyorlash taklif etildi.

Shuningdek, Markaziy Osiyo investitsiya kengashi, Innovatsion rivojlanish bankini ta' sis etish, qo'shma investitsiya forumlarini muntazam o'tkazib borish masalalari ham istiqbolli ekani ta'kidlandi.

Mintaqaviy transport-kommunikatsiya tarmog'ini rivojlantirish hamkorlikning yana bir ustuvor yo'nalishi sifatida qayd etildi. Mintaqaning geografik xususiyatlaridan kelib chiqib, tashqi savdo yuklarini tashish xarajatlarining ulushi tovarlar yakuniy qiymatining 50 foizigacha yetayotgani, bu esa jahon o'rtacha ko'rsatkichidan to'rt-besh barobar yuqori ekaniga e'tibor qaratildi.

Shu munosabat bilan kelishilgan tarif siyosatini shakllantirish va o'tkazish, milliy tashuvchilarni qo'llab-quvvatlash uchun imtiyoz va preferensiyalarni qo'llash, transport tarmog'i va infratuzilmasini modernizatsiya qilish, chegaralar punktlarining o'tkazish qobiliyatini oshirish, transport sohasini raqamlashtirish masalalari tizimli yondashuvni talab qiladi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasidagi ishlarni muvofiqlashtirib borish zarurligi ta'kidlandi. Bugungi kunda mintaqaviy miqyosda elektr energiyasi ishlab chiqarishni ko'paytirish va uni uchinchi mamlakatlariga eksport qilish bo'yicha qator strategik loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Ushbu sohada Mintaqaviy strategiyani ishlab chiqish maqsadida joriy yil sentabr oyida Toshkent shahrida bo'lib o'tadigan Dengizga chiqish imkoniga ega bo'lmagan mamlakatlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha xalqaro forum doirasida mintaqa qishloq xo'jaligi vazirlarining uchrashuvini o'tkazish taklif etildi.

Davlatimiz rahbari iqlim o'zgarishi muammolariga alohida e'tibor qaratdi. Harorat ko'tarilishi, muzliklar erishi, toshqinlar, qurg'oqchiliklar, chang bo'ronlari va boshqa ko'plab tabiat hodisalari jiddiy talafotlar yetkazishda davom etmoqda.

— Joriy yilning noyabr oyida Ozarbayjonda bo'lib o'tadigan Iqlim sammiti davomida mamlakatlarimiz yagona pozitsiya bilan chiqishlari mumkin. Bu o'rinda so'z xalqaro jamoatchilik, fondlar va donorlik tashkilotlari e'tiborini ushbu o'tkir muammolar, jumladan, Orol fojiasiga yechim topishga qaratish maqsadida mintaqadagi ekologik vaziyat haqida qo'shma taqdimot o'tkazish haqida ketmoqda, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shuningdek, Markaziy Osiyoni barqaror rivojlantirish kompleks dasturi va Transchegaraviy daryolar suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha mintaqaviy strategiyani ishlab chiqish va qabul qilish taklif etildi.

Energetika sohasidagi hamkorlik mintaqa mamlakatlari hamkorligining asosiy yo'nalishi sifatida qayd etildi. Bugungi kunda mintaqaviy miqyosda elektr energiyasi ishlab chiqarishni ko'paytirish va uni uchinchi mamlakatlariga eksport qilish bo'yicha qator strategik loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Bundan tashqari, atom energetikasini rivojlantirish, uglevodorlar yetkazib berishni ko'paytirish rejaları ham bor.

O'zbekiston Prezidenti mintaq mamlakatlari parlamentlari o'rtasidagi samarali

almashuvlarni rivojlantirishga yuqori baho berdi va buni har tomonlama qo'llab-quvvatlashini bildirdi. Shu munosabat bilan navbatdagi Parlamentararo forumni kelgusi oyda Xiva shahrida o'tkazishni taklif qiladi.

Gumanitar sohada hamkorlik masalalariga to'xtalar ekan, davlatimiz rahbari "madaniy-tarixiy merosning umumiyligini hisobga olgan holda, xalqlarimizning mintaqa kelajagi uchun daxldorligi, birdamligi, umumiy mas'uliyatni anglashini kuchaytirishga katta e'tibor berish lozim"ligini ta'kidladi.

"Markaziy Osiyo tarixi va madaniyati: yagona o'tmish va umumiy kelajak" xalqaro media platformasining tez fursatda ishga tushirilishi bu borada muhim amaliy qadam bo'ladi.

Mintaqa xalqlarining o'zaro bir-birini tushunishi va birdamligini yanada mustahkamlash maqsadida mintaqaviy o'ziga xoslikni shakllantirishning amaliy jihatlariga bag'ishlangan ilmiy forum o'tkazishni taklif etildi.

Innovatsion g'oyalar va loyihalar mintaqaviy tanlovining muntazam o'tkazilishi "Markaziy Osiyo yoshlar kun tartibi — 2030"ni ilgari surish va yosh avlodni hamkorlik dasturlariga jalb etishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

O'zbekiston Prezidenti ta'lim sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha qator tashabbuslarni ilgari surdi. Markaziy Osiyo ta'lim va akademik almashuv dasturini qabul qilish va yetakchi oliy o'quv yurtlarining diplomlarini o'zaro tan olish to'g'risidagi bitimni ishlab chiqish, iqtidorli talabalar o'qishi uchun o'zaro kelishuvlar asosida stipendiyalar ajratish muhimligi qayd etildi.

Ushbu masalalarni atroflicha muhokama qilish uchun oktabr oyida Toshkent shahrida birinchi Markaziy Osiyo ta'lim forumi o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Mintaqaviy sheriklikning yangi drayveri sifatida turizm sohasi belgilandi. Turizm almashuvini kengaytirish maqsadida milliy ID-kartalarni o'zaro tan olish masalasi o'rganish va "Bitta tur — butun mintaqa" tamoyili asosida ommaviy turizm mahsulotlarini ishlab chiqish taklif etildi.

Xalqaro subyektlarning mustahkamlanishi va mintaqaning yuqori jozibadorligi tufayli Markaziy Osiyo iqtisodiy faollik markaziga, Sharq va G'arb, Shimol va Janubni bog'lovchi transport-kommunikatsiya ko'prigiga aylana-yotgani qayd etildi.

Davlatimiz rahbari muhim tashabbus va qarorlarning tizimli ravishda amalga oshirilishi natijasida mintaq mamlakatlarining yaqinlashuv jarayoni barqaror, izchil va ortga qaytmas tus olganini alohida ta'kidladi.

Yakunda Shavkat Mirziyoyev yetakchilarga yuksak mukofot uchun yana bir bor minnatdorlik bildirib, Markaziy Osiyoni tinç va farovon hududga aylantirish O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor maqsadi bo'lib qolishini ta'kidladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi doirasida Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov bilan uchrashuv o'tkazdi.

O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shniçilik va strategik sheriklik munosabatlari yanada mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi.

Joriy yil iyul oyida Toshkentda bo'lib o'tgan Hukumatlararo komissiya va Ishlab olinadigan kengashning navbatdagi yig'ilishlari, shuningdek, Turkmaniston mahsulotlari ko'rgazmasining samarali natijalari mamnuviyat bilan qayd etildi.

O'zaro savdo hajmini oshirish va iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari, jumladan, sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi, transport sohalarida kooperatsiya loyihalari ilgari surish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Hududlararo aloqalarni kengaytirish va madaniy-gumanitar almashuv dasturlarini faollashtirish muhimligi qayd etildi.

Mintaqaviy kun tartibidagi masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qozog'iston Respublikasiga davlat tashrif yakanlandi.



# YANGI O'ZBEKISTONNING OLIMPIADA REKORDI

## Sportchilarimizning "Parij — 2024" dagi zafarli yurishi davom etadi

Tarixiy ikki kun. Dastlab 8-avgustdan 9-avgustga o'tar kechasi mamlakatimiz sportchilari — Ulug'bek Rashitov va Hasanboy Do'smatov Parij Olimpiadasida o'z yo'nalishida tengsiz ekanini namoyish etib, O'zbekiston jamoasi delegatsiyasiga oltin medallarni tuhfa etdi. Bu oqshom o'zbekning ikki mard yengilmis o'g'loni, azamat yigitlarning IKKI KARRA OLIMPIYA O'YINLARI G'OLIBLARI, jamoamiz esa bundan oldingi "Tokio — 2020" da erishgan natijasini muddatidan oldin takrorlagan kun sifatida tarixda qoladigan bo'ldi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev oltin medallarni qo'lga kiritgan hamda ikki karra olimpiya chempioniga aylangan taekvondochimiz Ulug'bek Rashitov va bokschimiz Hasanboy Do'smatov bilan telefon orqali muloqot qildi. Sportchilarni qizg'in tabriklab, terma jamoamiz tomonidan bir kunda Olimpiadaning ikkita oltin medal qo'lga kiritilgan O'zbekiston sporti uchun tarixiy voqea bo'lganini katta mamnuniyat bilan qayd etib, ularga minnatdorlik bildirdi. O'z o'rinda, sportchilarimiz ham ko'rsatilgan e'tibor va bildirilgan ishonch uchun tashakkur aytdi.

Demak, kechagi bahslarga qisqacha to'xtalamiz. Dastlab, erkin kurashchimiz G'ulomjon Abdullayev qirg'izistonlik Bekzat Almaz o'g'lidan ustun kelib, delegatsiyamiz hisobiga bronza medalini taqdim etdi. Medallarga to'la oqshomni bokschilarimiz — Asadxo'ja Mo'ydinxo'jayev va Lazizbek Mullajonov davom ettirdi. Yakunda Asadxo'ja meksikalik Marko Alonso Verdedan, Lazizbek esa Ozarbayjon vakili Alfonso Domingesdan qo'li baland kelib, Parij Olimpiadasi OLTIN MEDALLARINI qo'lga kiritdi.

Bu oqshomda kechgan janrlar tafsilotiga alohida to'xtalishning zarurati yo'q, nazariyda. Boisi, mana ikki kundirki, millionlab yurtodoshlarimiz tunlarni behalovat o'tkazdi, sportchilarimiz bellashuvlarini kuzatib bordi, tom ma'noda ularga zo'r ishtiyog, katta hayajon bilan muvaffaqiyatni kutib o'tirdi. Qovonarlisi, o'qning samimiy tilaklarida ikki xalq birlamligi, bizzning yutuqlarimizdan ular ham xursand bo'lishi ta'kidlangan.

Olimpiada jarayonidagi yana bir muhim holat qirg'izistonlik sportchi va bizzning murabbiylari o'rtasidagi munosabat orqali ko'rindi. To'g'ri topdingiz, gap qirg'izistonlik bokschi Munarbek Seyitbek o'g'liga o'zbekistonlik murabbiy



amin bo'ldik. Negaki, haqiqiy do'stga zafarli yurishigizga chindan xayrixohlik bildirila oladi. Shu kunlarda sportchilarimiz g'alabasi nafaqat yurtimizda, balki qo'shni davlatlarda ham ko'tarinki kayfiyatda kutib olinayotgani buning yaqqol misolidir. Masalan, bir kunda ikkita oltin medal qo'lga kiritilgan qozog' qardoshlarimizning yosh oqini Bek Shimat bizni tabriklab qo'shiq kuyildi. U sport tabriklarini oqinlar ayitimi usulida kuyilash orqali mashhur bo'lgan. Qovonarlisi, o'qning samimiy tilaklarida ikki xalq birlamligi, bizzning yutuqlarimizdan ular ham xursand bo'lishi ta'kidlangan.

Akmal Hasanovning sekundantlik qilgani haqida ketmoqda. Akmal Hasanovning ushbu harakatini, qirg'iz sportchisining tarixiy g'alabasiga qo'shgan hissasini qo'shnilarimiz olqishladi. Hatto unga "Chingiz Aytmatov" medali berildi. Ushbu holat ijtimoiy tarmoqlarda keng jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi. Shu bahona oddiy odamlar Markaziy Osiyo xalqlari azaldan qondosh-jondosh ekanini, bir-birlaridan faxrlanishini aytmog'da. Yo'q, shunchaki sport musobaqalari atrofida kechayotgan hodisalarni eslatmoqchi emasmiz. Xalqaro maydonda tahlikali vaziyat avj olgan bir pallada bizni quvontiradigan boshqa bir jihatlar haqida fikr yuritmoqchimiz.

o'rtasida ayrim ko'ngilsizliklar kuzatildi. Biz hozir o'sha mash'um voqealarni birma-bir eslab, uning sabablarini izohlamochi emasmiz. Muddao shuki, o'tgan davrdagi chegaralarning yopiqligi, munosabatlardagi taranglikning o'ziga xos sabablari bor edi. Yosh mamlakatlar shu yo'lni bosib o'tishi qaysidir ma'noda tabiiy.

Bugun yurtimizda ochiqlik, do'stona siyosat yuritishga katta e'tibor berilmoqda. Bu o'tgan qisqa davrdagi ijobiy o'zgarishlarda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Qovonarlisi, bunday ezgu amallar izchil davom etmoqda. Masalan, davlatimiz rahbari Markaziy Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Maslahat uchrashuvida ishtirok etdi. Unda nutq so'zlab qator taklif va tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, ID-kartalarni o'zaro tan olish taklif etildi. Bu aka-uka, qon-qarindoshimiz, degan millatlar bir-birining uyida bemalol yursin, darvozasi taqillatganida, unga qul' osilmagan rahbari Markaziy Osiyo davlatlari o'zaro tan olish taklif etildi. Bu aka-uka, qon-qarindoshimiz, degan millatlar bir-birining uyida bemalol yursin, darvozasi taqillatganida, unga qul' osilmagan rahbari Markaziy Osiyo davlatlari o'zaro tan olish taklif etildi. Bu aka-uka, qon-qarindoshimiz, degan millatlar bir-birining uyida bemalol yursin, darvozasi taqillatganida, unga qul' osilmagan rahbari Markaziy Osiyo davlatlari o'zaro tan olish taklif etildi.

Darvoqe, iqtisod haqida. Ushbu tarixiy uchrashuvda mamlakatlarimiz uchun uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy sheriklikni rivojlantirishning yangi modeli kerak ekanini ham ta'kidlandi. Ya'ni mamlakatlarimiz tabiiy savdo sheriklari bo'lib, milliy iqtisodiyotlarimiz bir-birini to'ldiradi.

Shu o'rinda kichik muhohaza. Qadimda insonlar qabila bo'lib yashagan. Ular bir oila hisoblangan. O'zaro bir farzandi ovga, yana biri dehqonchilikka, boshqalari ham shu kabi sohalarida muhim bo'lgan. Ovchi ham o'z o'rtasida ekin ekan, xirmon ko'targan. Lekin baribir qo'shimcha mahsulotga ehtiyoj sezgan. Dehqonda esa buning aksi, u ovchi og'asidan o'lja so'ragan. Markaziy Osiyo davlatlari ham joylashuvi, iqlimi, xalqining turmush-tarzi sabab o'sha katta oilaga o'xshaydi (aslida ham shunday bo'lgan). Endi tasavvur qiling, ovchi o'ljani qizg'onsa, dehqon dandan berishni istamasa, kim manfaat ko'radi?!

Ilgari surilayotgan iqtisodiy tashabbuslar zaminida ana o'shanday oddiy, ayni paytda juda muhim bo'lgan hayotiy haqiqat bor. Bunga

erishish uchun ham asosli takliflar aytiladi. Avvalo, tarif va notarif to'siqlar bartaraf etilishi kerak. Savdo aloqalari yaxshilash uchun muvofiqlik sertifikatlarini o'zaro tan olish va reglamentlarni unifikatsiya qilish, bojxona operatsiyalari kabi jihatlarini zamon talabiga moslash zarur.

Iqtisodiy birdamlik o'z o'rtasida mintaqaviy xavfsizlikni ham talab etadi. Bu borada aniq ishlar rejasini ko'rib chiqilishi aytiladi. Hozirgi geosiyosiy jarayonlar tobora noaniq bo'lib, turli nizolar avj olayotgan bir vaqtda xavfsizlikning ahamiyati haqida ortiqcha tafsilot berish shart emas nazariyda. Muhimi ana shunday vaziyatda kerakli qarorlar qabul qilinayotgani, do'stona aloqalarni mustahkamlash yo'lidan borilayotgani muhim. Sportdagi yakkala kurashlarda ham aslida, jamoa ishlaydi. Sportchiga to'g'ri yo'l ko'rsatib, uni chiniquitiradigan mashqlarga undaydigan murabbiylar bo'ladi. Sog'lig'iga, jismoniy holatiga javobgar insonlar uchun g'alabasida muhim o'rinni tutadi. Mintaqamizning notinch dunyoga beradigan munosib javobi ham xuddi shunday bo'lishi kerak. Ya'ni barcha davlatlar jamoa bo'lib, ahilikda ish ko'rishi lozim. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Maslahat uchrashuvida ilgari surilgan taklif va tashabbuslar, shu yo'lidagi ilk katta qadamlarning debochasi ekanini bilamiz.

Ha, Markaziy Osiyo davlatlari tarixida yangi davr boshlanmoqda. Uning hayotbaxshligi esa xalqlarimiz ko'ngil istagi, orzulari amalga oshayotganida ko'rinadi. Sportchilarimiz Parij Olimpiadasidagi ishtiroki orqali buni isbotladi. Aynan ular sabab Markaziy Osiyo xalqlari oddiy odamlardan tortib, toki davlatlar rahbarlarigacha bir-birini g'alaba bilan samimiy tabrikladi. Jaydari qilib aytganda, sport musobaqalari sabab biz bir-birimizga mehrimizni ochiq aytib oldik.

Ishonamizki, sportchilarimiz Parij Olimpiadasining qolgan ikki kunida ham zafarli yurishlarini davom ettirib, bugungi tarixiy rekordni keyingi to'rt yillikka qoldirmay yangilaydi. Shu orqali mamlakatimiz, mintaqamizda kutilayotgan yangi davrning nafasini beradigan YANGI TARIX YARATIBSHADI.

**Boboravshan G'UZIDDINOV,**  
**Avaz XUDOYQULOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbirlari

# O'ZBEKISTON PREZIDENTINING TASHQI SIYOSAT KURSI

## MARKAZIY OSIYODA TARAQQIYOT VA TINCHLIKNI TA'MINLASHNING ENG YAXSHI YO'LIDIR

**9-avgust kuni Qozog'iston poytaxti Ostona shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining oltinchi Maslahat uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda davlatlar rahbarlari mintaqaviy va global kun tartibidagi dolzarb muammolarni hal qilish yo'llarini muhokama qildilar.**

O'zbekiston Prezidenti sammitdagi nutqida Markaziy Osiyo mintaqasi doirasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish bo'yicha bir qator dolzarb tashabbuslarni ilgari surdi. Uchrashuv doirasida Prezident Shavkat Mirziyoyev mintaqa davlatlari o'rtasidagi do'stlik, qo'shnichilik va o'zaro anglashuvni rivojlantirishdagi alohida xizmatlari uchun Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Faxriy nishoni bilan taqdirlandi.

Davlatimiz yetakchisi yuksak mukofotni qabul qilib olar ekan, Markaziy Osiyoni tinch va farovon hududga aylantirish O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor maqsadi bo'lib qolishini alohida ta'kidladi.

Shu o'rinda qayd etish kerakki, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining oltinchi Maslahat uchrashuvida O'zbekiston Prezidenti tomonidan mintaqamizni bir oila sifatida shakllantirish, tinchlik va taraqqiyot manzilatiga aylantirish bo'yicha ilgari surilgan muhim tashabbus va takliflar xorijiy ekspertlarda ham katta qiziqish uyg'otmoqda.

**Ian PRAUD,**  
Buyuk Britaniya diplomatik akademiyasi direktorining sobiq o'rinbosari, diplomat:



Tashrif yakunlari ikki tomonlama munosabatlarni yanada rivojlantirish, butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun prinsipial ahamiyatga ega. Kelgusi 10 yilga mo'ljallangan strategik sheriklik va ittifoqchilik dasturining imzolanishi hamda Davlatlararo oliy kengashning birinchi majlisi o'tkazilishi O'zbekiston va Qozog'iston murakkab hamda oldindan aytilib bo'lmaydigan davrda Markaziy Osiyo

mintaqasi mamlakatlari o'rtasidagi aloqalarni harakatlantiruvchi yetakchi kuch roliga juda jiddiy yondashayotganidan dalolat beradi.

Mohiyatan, ikki davlat mintaqaviy va global jarayonlar bilan bog'liq masalalarda aniq qadamlarni qo'yarmoqda. Ular, shuningdek, birdamlik, do'stlik, hamjihatlik orqali Markaziy Osiyo yaxlitligini butun dunyoga ko'rsatmoqchi.

Davlat tashrifi Prezident Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan yaxshi qo'shnichilik, amaliy, mintaqaviy va tizimli barqarorlik manfaatlariga, sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirishga asoslangan tashqi siyosati mintaqada taraqqiyot va tinchlikni ta'minlashning eng yaxshi yo'li ekanini yana bir bor namoyish etdi. Bu xizmatlar inobatiga olinib, O'zbekiston Prezidenti Qozog'istonning "Oltin Qiron" ordeni bilan taqdirlandi.

Sanoat, savdo, madaniy-gumanitar, ilmiy sohalarida imzolangan ikki tomonlama shartnomalar O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi o'zaro manfaatli va do'stona munosabatlarni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Ikki mamlakat o'rtasida o'rnatilgan ittifoqchilik munosabatlari o'zaro va mintaqaviy hamkorlikni aniq mazmun bilan boyitishga, shuningdek, ular mintaqadagi boshqa davlatlarni birlashtirishga namuna bo'lishga, bu esa Markaziy Osiyoda tinchlik, barqarorlik va farovonlikni ta'minlashga xizmat qilishiga katta umid bor.

**Kalnur ORMUSHEVA,**  
Qirg'iziston Prezidenti huzuridagi Milliy strategik tadqiqotlar instituti ekspertlar kengashi a'zosi, siyosatshunos:

Tashrif ikki davlat o'rtasidagi aloqalar, do'stlik va yaxshi qo'shnichilik munosabatlarni mustahkamlash yo'lidagi navbatdagi qadam va shu bilan birga, konstruktiv, o'zaro manfaatli sheriklik namunasini ko'rdik.

Mintaqaviy konsolidatsiya g'oyasi tarafdorlari bo'lgan O'zbekiston va Qozog'iston yetakchilarining global va mintaqaviy siyosat masalalarida bir-birini ochiq qo'llab-quvvatlayotgani Markaziy Osiyoda qulay siyosiy muhitni tiklash, mintaqamizni o'zgartirishda, shuningdek, barqaror, investitsiyaviy jolibador, obod hududga aylinishida muhim o'y bo'lmoqda.

Bu, ayniqsa, sayyoramizning turli mintaqalarida, shu jumladan, bizga juda yaqin hududlarda sodir bo'layotgan global inqirozlar sharoitida juda muhimdir.

**Jan-Antuan DYUPRA,**  
Yevropada prognozlash va xavfsizlik instituti eksperti (Fransiya):



Markaziy Osiyo mintaqasining ikki yirik davlati — O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi aloqalar tobora mustahkamlanib, bir-birini to'ldiruvchi xususiyat kasb etmoqda.

Har ikki davlat ham butun Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va farovonlikni ta'minlashga katta hissa qo'shmoqda. O'zbekiston Prezidenti Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlarini o'tkazish tashabbusi bilan chiqqanidan buyon ketma-ket beshta sammit, shuningdek, sanoat, savdo, transport, energiya



va iqlim o'zgarishiga qarshi kurash, suv resurslarini boshqarish kabi sohalarida ko'p tomonlama hamkorlik tashabbuslari ilgari surilgan ko'plab forum va uchrashuvlar tashkil etildi. Ushbu uchrashuvlar butun mintaqada barqaror hisoblangan va katta salohiyatga ega qulay investitsiyaviy muhitni yaratishga katta yordam berdi. Xavfsizlikni mustahkamlash, madaniy-gumanitar almashinuvni rivojlantirish borasida ham salmoqli yutuqlarga erishildi.

2022-yilda bo'lib o'tgan mintaqa davlatlari rahbarlarining to'rtinchi sammitida "XXI asrda Markaziy Osiyoni rivojlantirish maqsadida do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va hamkorlik to'g'risida"gi shartnoma imzolangan edi. Ushbu hujjat yetakchilarning mintaqa davlatlari o'rtasidagi aloqalarini mustahkamlash istagini namoyon qildi.

Bundan tashqari, yaqin mintaqaviy sheriklik Markaziy Osiyo davlatlarining BMT, SHHT, MDH, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiya davlatlar tashkiloti va Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi kabi xalqaro tuzilmalar doirasidagi harakatlarini muvofiqlashtirish va salmog'ini kuchaytirish imkonini beradi. Bu voqealarning barchasi ikki tomonlama va mintaqaviy sammitlar orqali Markaziy Osiyo hamda uning har bir davlati uchun foydali bo'lgan istiqbolli loyihalarni amalga oshirish, shu bilan birga, ularning xalqaro salmog'i va geosiyosiy rolini mustahkamlash uchun muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda.

**Solih YILMAZ,**  
"RUSEN" Rossiya va MDH mamlakatlarini o'rganish markazi direktori (Turkiya):

Tashrif ikki davlat o'rtasidagi yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik hamda ittifoqchilik munosabatlari yanada rivojlantirishga intilishi yuksak darajada ekanini yana bir bor namoyon etdi.

Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston va Qozog'iston yetakchilarining uchrashuvlaridagi eng muhim jihatlardan biri, bu — Davlatlararo oliy kengashning birinchi majlisi o'tkazilgani bo'ldi. Unda tomonlar Parlamentlararo forumni ta'sis etish, Ekspertlar kengashining qizg'in ishini davom ettirish bo'yicha kelishuvlarga erishdi. Shuningdek, har tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan 2024-2034-yillarga mo'ljallangan Strategik sheriklik va ittifoqchilik dasturi qabul qilindi.

Yaqin yillarda tovar ayirboshlash hajmini 10 milliard dollarga yetkazish imkoniyati to'g'risidagi tomonlarning kelishuvi ikki davlatning foydalanilmagan iqtisodiy salohiyatiga to'liq foydalanishga qat'iy qaror qilinganidan dalolat beradi.

Bu yo'nalishda transport va logistika sohasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish muhim ahamiyatga ega. Chunki aynan transport-logistika sohasi ikki davlatning geostrategik pozitsiyasidan kelib chiqqan holda O'zbekiston — Qozog'iston munosabatlarning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Davlat rahbarlarining "Sian — Xorg'os — Olmaota — Sariyog'och — Toshkent" yo'nalishi bo'yicha birinchi yul poyezdining yetib kelish marosimida ishtirok etgani, xalqaro transport yo'nalishlari raqobatbardoshligi va jozibadorligini oshirishga ko'maklashishga bo'lgan intilishning isboti bo'ldi.

O'zbekiston Prezidentining Qozog'istonga davlat tashrifi natijalari qo'yilgan maqsadlarga erishishda kuchli rag'bat bo'lib xizmat qilishiga ishonaman.

**Viktor KIM,**  
Tojikiston Milliy fanlar akademiyasi Falsafa, siyosatshunoslik va huquq instituti ilmiy xodimi:



O'zbekiston Prezidentining Qozog'istonga davlat tashrifi yakunlariga nafaqat ikki tomonlama munosabatlarni kengaytirish va chuqurlashtirish nuqtayi nazaridan, balki hamkorlikning mutlaqo yangi istiqbollari nuqtayi nazaridan ham alohida e'tibor qaratish lozim.



Albatta, bu galgi davlat tashrifi tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari rivojiga yangi sur'at qo'shadi. Davlatlararo oliy kengashning birinchi majlisini o'tkazish muhim, strategik qadamdir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev va Qosim-Jomart Toqayev iqtisodiy hamkorlikning haqiqiy harakatlantiruvchisi bo'lgan hududlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikka ham katta ahamiyat berib, Hududlar forumini Hududlar kengashiga aylantirish va uning birinchi yig'ilishini shu yilning sentabr oyida Samarqand shahrida o'tkazish to'g'risida kelishib oldilar.

Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi munosabatlar darajasini baholash tom ma'noda iqtisodiy va siyosiy ko'rsatkichlarga asoslanmaydi. Ular xalqaro munosabatlardagi yangi yo'nalishlar — yaxshi qo'shnichilik va o'zaro ishonch bilan o'lchanadi. Aynan shu tamoyillar asosida so'nggi yetti yil ichida Markaziy Osiyo yagona mintaqa sifatida shakllandi va 2024-yilda rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo'ydi.

O'zbekiston va Qozog'iston jahondagi muttasil o'zgarib turadigan sharoitlarda Markaziy Osiyoda yangi ittifoqchilik munosabatlari shakllantirish uchun ishonchli poydevor bo'ladigan yangi ittifoqchilik aloqalarining tashabbuskori bo'ldi.

2024-yil 10-avgust, 160-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz

## Islohot odimlari

Mamlakatimizdagi qurilish ishlari xususida gap ketganda, bir-ikki mahallada barpo etilayotgan ijtimoiy obyektlar yoki ko'p qavatli uy-joylar bilan cheklanib bo'lmaydi. Vaholanki, bir paytlar biror hududda qad rostlagan kichik imoratni ham g'urur bilan e'tirof etishga oshiqardik. Bugun vaziyat tamomila boshqacha. Yurtimizda kechayotgan bunyodkorlik ko'lami shunchalik kengki, buning ortidan hududlarda butun boshli yangi mahallalar, shaharchalar va yirik shaharlar paydo bo'lmoqda. Loyihalarning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyati juda ortgan.

**Sherzod HIDOYATOV,**  
qurilish va uy-joy kommunal  
xo'jaligi vaziri vazifasini  
bajaruvchi

Bunday ko'lamdor bunyodkorlik jarayoni shahar qishloqlarimiz qiyofasini o'zgartirish barobarida odamlar hayotiga ham fayz, mazmun bag'ishlayapti. Maxsus dasturlar asosida qad rostlayotgan arzon turar joylar, namunali uylar, yangi massivlarda odamlar munosib hayot kechirmoqda.

Biz inson qadri ulug'langan, uning manfaati ustun qo'yilgan mamlakatda yashaymiz. O'zbekiston o'z oldiga "inson qadri uchun" g'oyasiga yo'g'rilgan ijtimoiy, iqtisodiy siyosatni oliy maqsad qilib qo'ygan. Qurilish sohasidagi bugungi ishlar, o'zgarishlar, yangiliklar ana shu maqsadlarga qaratilgan bilan ahamiyatlidir. Binobarin, uy odamning kichik vatani. Qulayliklarga ega vatanni esa hamma xohlaydi.

Joriy yilning birinchi yarmida qurilish ishlari hajmi 2023-yildagiga nisbatan 10 foizdan ziyod ortib, salkam 80 trillion so'mga yetdi hamda sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 6 foizdan ko'proqni tashkil etdi. Bu yurtimizda arxitektura va qurilish sohasi iqtisodiyotning jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan tarmoqlaridan biriga aylanayotganini ko'rsatadi.

Keyingi yillarda zamonaviy uy-joylar barpo etish yo'lida ham katta yutuqlarga erishildi. 2017-yildan bugunga qadar jami 394 ming 898 xonadondan iborat 7888 ta uy barpo etilgan fikrimiz dalilidir.

Demografik o'sish sur'ati yangi uylarga talabni tobora orttirmoqda. Shu bois, joriy yilda 2,5 ming gektar hududda 53 ta "Yangi O'zbekiston" massivi bunyod etilmoqda. O'tgan olti oy davomida ushbu massivlarda 4,2 ming xonadonli 104 ta uy-joy foydalanishga topshirildi. Kelgusi besh yilda aynan shunday massivlarda yana 250 mingdan ziyod oilani uy bilan ta'minlash rejalashtirilgan.

Qurilish sohasiga yangi texnologiya va innovatsiyalar, eng zamonaviy me'moriy yechimlar faol kirib kelmoqda.

Islohotlar  
natijadorligini  
ta'minlash yo'lida

Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasini isloh qilish bo'yicha Prezidentimizning jami 55 ta hujjati, hukumatning 58 ta qarori va 11 ta qonun hujjati qabul qilindi. Sohaning huquqiy va moddiy-texnik bazasi mustahkamlanayotgani, tarmoqqa zamonaviy qurilish tashkilotlari jadal kirib kelayotgani, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati rivojlanib, bozor sifati mahsulotlari bilan boyiyotgani bunda muhim o'rin tutadi.

Bugun tizimda 31 mingdan ortiq qurilish-pudrat tashkiloti ro'yxatga olingan. Ularga qulaylik yaratish birlamchi vazifaga aylangan. Avvallari qurilish ishlari bo'yicha buyurtmachi va pudratchi tashkilotlar tomonidan imzolangan shartnomaga ko'ra bajarilgan ishlar to'g'risidagi hisobot yoki hisobvaraq-fakturalar qog'oz ko'rinishida, ya'ni turli byurokratik to'siqlarga duch kelingan holda rasmiylashtirilardi. Bu esa pudrat tashkilotlari bajarilgan qurilish ishlari o'z vaqtida rasmiylashtirish va mablag' ajratilishida sun'iy to'siqlarga sabab bo'lar edi. Vazirlar Mahkamasining joriy yil 12-iyundagi qaroriga

RAQAMLASHGAN VA ZAMONAVIY  
QURILISH SAMARASISHAHAR-U QISHLOQLARIMIZ QIYOFASIDA  
YAQQOL KO'ZGA TASHLANMOQDA

asosan, Hisobvaraq-fakturalarning shakllari hamda ularni to'ldirish, taqdim etish va qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritildi. Pirovardida, joriy yil 1-oktabrdan e'tiboran budjetdan moliyalashtiriladigan obyektlarda bajarilgan qurilish-montaj ishlari topshirilganda, yangi shakldagi hisobvaraq-faktura orqali taqdim etilishi belgilandi.

Mazkur usul pudrat va buyurtmachi tashkilotlar tomonidan obyektlarda bajarilgan ishlar hamda ular uchun markazlashgan holda ajratilgan mablag'lar o'zlashtirilishida shaffoflikni ta'minlashga, soha rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman, joriy yilning olti oyida 22 ta shaharchaning bosh rejalari hamda 85 ta qishloq aholi punkti hududlarining shaharsozlik jihatidan rivojlantirish sxemalari ishlab chiqilib, jamoatchilik muhokamasidan o'tkazildi. Joriy yilning o'tgan davrida qurilish sohasiga oid 42 ta texnik-normativ hujjat ishlab chiqilib, eskilari yangilandi.

Shaharsozlik va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasi mutaxassislari malakasini oshirish, bilimni davriy ravishda baholab borish maqsadida vazirlik huzurida Kompetensiyani rivojlantirish instituti tashkil etildi. Institut qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasidagi 10 ta yo'nalish bo'yicha 42 mingdan ortiq mutaxassisni reja asosida o'qitish bo'yicha rivojlangan davlatlar vakillari ishtirokida maxsus o'quv dasturi ishlab chiqildi.

Bugungi kunga qadar institut tomonidan jami 2381 mutaxassis qayta o'qitildi, malaka oshirish kursini tamomlaganlardan 524 nafariga sertifikat berildi.

Ilg'or usulning  
o'rni bo'lakcha

Barcha sohada raqamlashtirishning o'z o'rni bor. Lekin uning ahamiyati bunyodkorlik ishlarida yanada ortadi. Negaki, qurilish bir-ikkida bitadigan ish emas. Muayyan muddat talab etiladigan jarayon. Shu jihatdan raqamlashgan qurilish — jadalashgan qurilish, desak mulohaza bo'lmaydi. Bu borada so'nggi



yillarda qator ishlar qilindi. Xususan, "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimida qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasidagi barcha 16 ta davlat xizmati raqamlashtirildi.

Reyting platformasida 2022-yilda jami 20 ming 140 ta qurilish-pudrat tashkiloti mavjud bo'lgan bo'lsa, hozirgi davrga kelib, 23 ming 576 taga yetdi. Shuningdek, elektron reytingda mavjud korxonalarda 2023-yilda maxsus texnika vositalari soni 2021-yildagiga nisbatan 2 barobar, band bo'lgan aholi soni 58 foiz ortdi.

Tender elektron platformasida inson omili bartaraf etilgan hamda ochiq va shaffof talablar belgilanishi natijasida qurilish-pudrat tashkilotlari o'rtasida raqobat muhiti tobora sog'lomlashib bormoqda. Xususan, unda jami 62 ming 355 ta tender o'tkazilgan bo'lib, ularda 13 ming 541 ta tashkilot ishtirok etgan.

O'tkazilgan tenderlarning jami qiymati 39,5 trillion so'mni tashkil etib, ularda 37,5 trillion so'mlik shartnomalar tuzilgan. Elektron tender platformasida tejab qolingan mablag' 2 trillion so'mga yetgan.

O'tgan davr mobaynida qurilishni loyihalashtirish hamda loyiha-smeta hujjatlari ekspertizasi jarayonlari qayta ko'rib chiqilib, u shaffof elektron tizimga o'tkazildi. Mazkur ishlar vazirlik huzuridagi Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish respublika markazi tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda.

"Shaffof qurilish" milliy axborot tizimida ishga tushirilgan ekspertiza.mc.uz platformasi boshqa manfaatdor idora va tashkilotlarning elektron platformalari bilan integratsiya qilindi.

Obyektlarning loyiha hujjatlarida seysmik xavfsizlik, zilzilabardoshlik va konstruksiyalar mustahkamligi ko'rsatkichlarining ta'minlanganlik holati yuzasidan ekspertiza tizimi kuchaytirildi.

Barcha dasturlar doirasida 2024-yilning olti oyida 6,3 mingdan ziyod obyektning elektron platforma orqali kelib tushgan loyihalari yig'irma ekspert xulosalari taqdim etildi. Ekspertiza jarayonida loyiha yechimlarini yaxshilash va ularni normativ talablarga moslashtirish, loyihalardan asossiz ko'zda tutilgan xarajatlarni chiqarib tashlash hisobiga tejalgan mablag' 4,4 trillion so'mni tashkil etdi.

Xususan, birgina Investitsiya dasturi doirasida jami 1233 ta obyekt bo'yicha ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlarining qiymati 8,5 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, ekspertiza ko'rigidan so'ng tavsiya etilgan qiymat 7,1 trillion so'm etib belgilanib, 1,4 trillion so'm iqtisod qilindi.

Sohada nazorat tizimini tartibga solishda raqamli texnologiyalarning alohida o'rni bor. Qurilishni boshlash uchun obyekt ro'yxatdan o'tkazish hamda tugallangan obyektlarni foydalanishga topshirish bo'yicha yangi reglament qabul qilinishi, kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf belgilanishi natijasida qurilish-pudrat tashkilotlari o'rtasida raqobat muhiti tobora sog'lomlashib bormoqda. Xususan, unda jami 62 ming 355 ta tender o'tkazilgan bo'lib, ularda 13 ming 541 ta tashkilot ishtirok etgan.

O'tkazilgan tenderlarning jami qiymati 39,5 trillion so'mni tashkil etib, ularda 37,5 trillion so'mlik shartnomalar tuzilgan. Elektron tender platformasida tejab qolingan mablag' 2 trillion so'mga yetgan.

O'tgan davr mobaynida qurilishni loyihalashtirish hamda loyiha-smeta hujjatlari ekspertizasi jarayonlari qayta ko'rib chiqilib, u shaffof elektron tizimga o'tkazildi. Mazkur ishlar vazirlik huzuridagi Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish respublika markazi tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda.

Vazirlikning open-data.mc.uz portali orqali qurilish ishlari tegishli barcha hujjatlar, jumladan, arxitektura rejalashtirish topshirig'i, qurilish turi, sohalar, loyiha hujjatlari va qurilish boshlangani haqidagi barcha ma'lumotlarni keng jamoatchilik vakillari ochiq tarzda hududlar kesimida kuzatib borishi imkoniyati yaratilgan.

Ayni paytda hal etilishi zarur bo'lgan dolzarb vazifalar ham yo'q emas. Keyingi vaqtlarda yo'lovchi vagonlarining holati, sovitish tizimidagi muammolar bo'yicha aholi tomonidan e'tirozlar bo'layotir. Ushbu masalalarga yechim topish va aholiga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash maqsadida

amaliy ishlar boshlangani bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi. Hozir hayotimizga tobora chuqur kirib kelayotgan paqamli texnologiyalar temir yo'l transporti sohasiga ham faol joriy etilmoqda. Natijada xizmat ko'rsatish sifati oshib bormoqda. Xususan, yuklarni yetkazish muddati sezilarli darajada qisqardi, temir yo'l uchastkalarining o'tkazuvchanlik imkoniyati ortdi. Zamonaviy sharoitlar tufayli yo'lovchilar oqimi ham ko'paymoqda.

Ayni paytda hal etilishi zarur bo'lgan dolzarb vazifalar ham yo'q emas. Keyingi vaqtlarda yo'lovchi vagonlarining holati, sovitish tizimidagi muammolar bo'yicha aholi tomonidan e'tirozlar bo'layotir. Ushbu masalalarga yechim topish va aholiga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash maqsadida



Zamonaviylik har sohaga daxldor va rivojlanishning asosidir. Bu qurilish sanoati va bunyodkorlik ishlarida, ayniqsa, juda muhim. Shu ma'noda shaharlarning raqamli egizaklarini yaratish yo'nalishida "ToshkentboshplanLIT" instituti tomonidan AQSHning dunyodagi eng salohiyatli ESRI kompaniyasidan ArcGIS geoxorbot tizimining rasmiy litsenziyalari xarid qilindi.

Mazkur tizimdan foydalanish uchun mutaxassislar zamonaviy kompyuter stansiyalari bilan ta'minlandi. Toshkent shahrining raqamli egizagi va bosh rejasini ishlab chiqishga jalb etilgan mutaxassislar geoxorbot tizimidan foydalanishga o'tqildi.

Ushbu yo'nalishdagi topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida Urbanizatsiya va shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish respublika markazi tashkil etilib, unga Davlat shaharsozlik geoxorbot tizimi idoralararo geoxorbot dasturiy kompleksini yuritish va operator funksiyasini bajarish yuklatildi. Shuningdek, ushbu tizimga ma'lumotlarni joylashtirish, saqlash, fazoviy ma'lumotlar almashinuvini ta'minlash va ulardan foydalanish huquqlarini boshqarish vakolati berildi.

Davlat dasturlari doirasida ishlab chiqilib, belgilangan tartibda tasdiqlangan shaharsozlik hujjatlari mutazam ravishda Davlat shaharsozlik geoxorbot tizimiga kiritib kelinmoqda.

Bugungi kunga qadar ushbu tizimga 407 ta bosh reja, 16 ta batafsil rejalashtirish loyihasi va hududlarni arxitekturaviy rejalashtirishni tashkilashtirishning 595 ta loyihasi (ARTL) kiritilgan bo'lib, ma'lumotlar uzluksiz hamda o'z vaqtida yangilab borilmoqda.

Qurilish sohasida narx shakllanishi tizimini shaffoflashtirish hamda hajm uslubida smeta hisob-kitoblarni joriy etish uchun zamin yaratish maqsadida "Qurilish resurslari milliy

klassifikatori" elektron tizimi joriy etildi. Narxlarning real vaqt rejimida yangilanib borilishini ta'minlash maqsadida tizim Respublika tovar xomashyo birjasi va Soliq qo'mitasining elektron axborot tizimlari bilan integratsiya qilingan. Bugungi kunda klassifikatorga 177 ming 590 ta resurs kiritilgan va mazkur jarayon izchil davom etmoqda.

Shu bilan birga, keng jamoatchilikka qurilish sohasidagi texnik tartibotlar bilan qulay ravishda tanishish imkoniyatini yaratuvchi "Shaharsozlik normalari" mobil ilovasi ishlab chiqildi hamda 120 ta shaharsozlik normasidan erkin foydalanish mumkin bo'ldi.

Qurilish sohasini raqamlashtirish va bunyodkorlik ishlari izchil davom ettiriladi. Endi qurilishda tuziladigan barcha shartnoma raqamlashtiriladi. Xususan, obyektini foydalanishga qabul qilish jarayoni raqamlashtirilib, dalolatnomalar "Shaffof qurilish" tizimi orqali tasdiqlanadi. Qiymati 10 milliard so'mdan ortiq loyihalar bo'yicha subpudratchilarni faqat ushbu tizim tanlash tartibi yo'lga qo'yiladi. Ushbu tartib xalqaro moliya tashkilotlari bilan amalga oshirilayotgan loyihalarga ham tatbiq etiladi. Natijada ishlab chiqaruvchi ham, quruvchi ham, nazorat qiluvchi ham qayerda qaysi qurilish materiallari qancha turishini onlayn kuzatib boradigan tizim yaratiladi.

2024-yilda jami 150 trillion so'm hajmda pudrat ishlari bajarilib, mazkur ishlarning 106,5 foiz o'sishi ta'minlanadi. Bino va inshootlarning seysmik mustahkamligi, yong'in xavfsizligi va boshqa xavflar bo'yicha sinov ishlari o'tkazish uchun Toshkent viloyatining Toshkent shahriga chegaradosh hududida poligon barpo etiladi.

Maqsadli dasturlar doirasida jami 1,5 mingta ijtimoiy soha va infratuzilma obyekti hamda 80 ming xonadonli ko'p qavatli uylar foydalanishga topshirildi.

## Munosabat

Xalqaro aloqalarni mustahkamlash, barqaror iqtisodiy taraqqiyotga erishish va tadbirkorlik rivojida temir yo'lning ahamiyati katta. Zero, temir yo'l infratuzilmasi mintaqalar va hududlar o'rtasida qatnovlarni yaxshilash, iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlash bilan birga, yalpi ichki mahsulot o'sishida ham muhim omil. Shu bois, taraqqiyot sari intilayotgan har bir davlat temir yo'l infratuzilmasini yaxshilashga alohida e'tibor qaratadi.

Geografik joylashuvi tufayli dengizga chiqish imkoniga ega bo'lmagan O'zbekiston uchun temir yo'lning ahamiyati yanada yuqori. Shundan kelib chiqib, oxirgi yillarda mazkur yo'nalishda aholiga xizmat ko'rsatish, yuk tashish, sohaning moddiy-texnikaviy imkoniyatini oshirish, malakali kadrlar tayyorlash hamda raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratilayapti.

Keyingi yillarda 3 ming kilometrdan ziyod temir yo'l elektrlashtirildi. Buxoro —

TEMIR YO'L TARMOG'I  
TRANSFORMATSIYASI  
O'zaro aloqalar rivoji va iqtisodiy  
yuksalishga zamin yaratadi

Urganch — Xiva hamda Miskin — Nukus temir yo'l tarmoqlarini elektrlashtirish esa jadal davom etmoqda. Shuningdek, poystaximzidan Samarqand, Buxoro, Qarshi kabi tarixiy shaharlarga "Afrosiyob" elektr poyezdlarining qatnovi ko'paytirilmoqda. Kelgusida bu ishlarning davomi sifatida Toshkent — Buxoro — Xiva hamda Toshkent — Chirchiq — Hojikit yo'nalishlarida ham yuqori tezlikda harakatlanadigan poyezdlar qatnovini yo'lga qo'yish ko'zda tutilgan.

Prezidentimizning joriy yil 6-avgust kuni temir yo'l sohasida qilinayotgan ishlar va kelgusi rejalarga oid taqdimot bilan tanishishi asnosida tarmoqda erishilayotgan natijalar tahlil etildi, ustuvor vazifalar belgilab berildi.

O'tgan yil 10-oktabrda davlatimiz rahbarining aksiyadorlik jamiyatimizni

transformatsiya qilishga doir qarori qabul qilingan edi, — deydi "O'zbekiston temir yo'llari" AJ boshqaruvchi raisi Zufar Narzullayev. — Ushbu qaror ijrosini ta'minlash bo'yicha keng qamrovli ishlar bajarilayapti. Jumladan, jamiyat tarkibida infratuzilma, vagon xizmati, yo'lovchilarni tashish kabilar bilan shug'ullanuvchi 6 ta mustaqil korxonaga ish boshladi. Samarasiz va bir-birini takrorlovchi vazifalar maqbullashtirilib, ortiqchasi qisqartirildi. Sohani raqamlashtirish bo'yicha izchil ishlanyapti. Natijada ilgari zarar bilan ishlab kelgan "O'zbekiston temir yo'llari" AJ foyda ko'rishga o'tdi.

Bugun mamlakatimizning xalqaro transport va tranzit imkoniyatini kengaytirish borasida ham yangi ufuqlar ochilmoqda. Strategik ahamiyatga ega Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'lini qurish bo'yicha



yo'lovchi vagonlar ishlab chiqarishga Sanoatni rivojlantirish jamg'armasidan 50 million dollar ajratilmoqda. 38 ta lokomotiv olib kelish va 12 ta elektrovozni modernizatsiya qilish bo'yicha xitoylik hamkorlar bilan 181 million dollarlik kelishuvga erishildi.

Taqdimotda mutasaddilar ushbu mablag' hisobidan poyezdlar parkini yangilash rejasini bo'yicha axborot berdi.

Transformatsiya jarayonidagi asosiy vazifalardan biri raqamlashtirishdir, — deydi "Temiryo'l infratuzilma" AJ bosh direktori Sirojiddin Norqobilov. — Shu maqsadda yagona dispetcherlik markazida yangi situatsion markaz ochildi. Temir yo'lida harakatlari boshqarish,

vagonlar oqimini to'g'ri tashkillashtirish, yo'lovchi va yuklarning manziliga o'z vaqtida hamda xavfsiz yetib borishini ta'minlash markazning asosiy vazifasidir. Bundan tashqari, lokomotiv brigada ishini samarali tashkil etish bilan shug'ullanadi.

Taqdimotda Prezidentimiz transformatsiya jarayonini jadallashtirish bo'yicha tegishli vazifalarni belgilab berdi. Ushbu topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatli bajarish "O'zbekiston temir yo'llari" AJ faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqib, iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi.

**Bahor XIDIROVA,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

BUYUK O'ZBEK YO'LI

# “MEN – O‘ZBEKMAN! O‘ZBEKISTONLIKMAN!”

## Har bir vatandosh davlat e'tiborida



**Odiljon SATTOROV,**  
“Vatandoshlar”  
jamoat fondi boshqaruv raisi,  
iqtisodiyot fanlari  
doktori

Hech bir ma'naviy-ma'rifiy evrilish o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Insoniyat hayotida biror hodisaning yuzaga kelishi oson kechmaganidek, ezgulik, odamiylik sari yuz tutishi ham murakkab jarayondir. Buning asosida yillar, davrlar silsilasida pishib yetilgan, puxta o'ylangan va odamzodga naf keltiruvchi g'oya va maqsadlar mujassam bo'lishi zarur.

Inson qachon baxtiyor bo'ladi? Qachonki yurtini sevs, yaqinlari diyorini tez-tez ko'ra olsa, o'z tashabbus va loyihalari dadil aytga olsa va ro'yog'ga chiqarsa. Har bir vatandoshning qalbidan shu kabi niyat-istaklar borligi turgan gap! Ularni vatanimiz atrofida birlashtirish, qalbi va ongida yurt bilan faxrlanish tuyg'usini yuksaltirish, milliy o'zlikni saqlab qolish, ular tuzgan jamoat birlashmalarini qo'llab-quvvatlash, turli sohada faoliyat yuritayotgan vatandoshlarimizning salohiyatini mamlakatimiz taraqqiyotiga samarali yo'naltirish davlatimizning xorijdagi vatandoshlarimiz bilan ishlashdagi bosh mezonini etib belgilandi. Yakkil fikr, uyg'un tushuncha va maqsad bilan harakatlanish muvaffaqiyatga erishishda muhim omil. Shu ma'noda, xorijdagi vatandoshlar bilan ishlash faqat “Vatandoshlar” jamoat fondining emas, balki har bir davlat idorasi, vazirlik va tashkilotlarning ishi sifatida ko'rildi. Shuning o'zi ham bu boradagi ishlar ko'lami salmoqli ekanini ko'rsatib turibdi.

2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berish yo'li orqali yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz qabul qilindi. Bosh qonunimizga vatandoshlar bo'yicha ham modda kiritildi. 23-moddada “O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida ham, uning tashqarisida ham o‘z fuqarolarini himoya qilish va ularga homiylik ko‘rsatishni kafolatlaydi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi O‘zbekistondan tashqariga majburiy chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berib yuborilishi mumkin emas.

Davlat xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni saqlab qolish hamda rivojlantirish to'g'risida xalqaro huquq normalariga muvofiq g'amxo'rlik qiladi”.

Sanoqli davlatlardagina Konstitutsiyaga xorijdagi vatandoshlar bilan ishlash, muloqot qilish masalasi kiritilgan. Vengriya, Polsha, Turkiya, Rossiya, Hindiston shular jumlasidan. Bu modda xorijda istiqomat qilayotgan, ishlayotgan va o'qiyotgan har bir vatandoshimiz uchun tarixiy yangilik bo'ldi, desak adashmaymiz. Chunki davlatning o'z fuqarolarini himoya qilishi, buning Konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi davlatning xorijdagi vatandoshlar bilan ishlashga siyosatning muhim yo'nalishi sifatida qarag'ayonini bildiradi. Mana shunday muloqotlarni ularni vatanga yaqinlashtiradi, ona yurt taraqqiyotiga daxldor qiladi.

Mazkur yo'nalishdagi qadamlar kattarib, qisqa muddatda vatandoshlar taqdiriga qayg'urish mamlakat Bosh qonuni darajasiga ko'tarilgani insonparvar siyosat samarasidir. “Vatandoshlar” jamoat fondi bugun vazirlik va idoralar bilan yaqindan hamkorlikda ishlash, xorijdagi vatandoshlar uchun ko'prik vazifasini bajarib keladi.

### Xalqaro tajriba o'rganildi

Xorijdagi yurtdoshlarimiz bilan samarali ishlashda bizga xalqaro tajriba, albatta, kerak. Dunyoda kimdir tajriba almashish maqsadida, kimdir o'qish, ish tufayli turli davlatlarda yashaydi. Har bir davlat o'z xalqining ovozini saqlab qolish uchun vatandoshlari bilan uzviy aloqada turli loyihalar, dasturlar ishlab chiqadi. Shu ma'noda, qaysi sohada ish tizimi tashkil etilsa, natijaga erishish oson va tez bo'ladi. Buni saldam sakkiz yillik tajriba misolida ko'rib turibmiz. Bizning fondimiz ham o'z oldiga qo'ygan vazifalar, reja va maqsadlarni amalga oshirishda bunga e'tibor qaratib kelmoqda.

O'tgan qisqa muddatda vatandoshlar uchun tez-tez ona vatanga kelish, jarayonlarda qatnashish imkoniyati yaratildi. Ularga aslida, nima kerak? Albatta, o'zgina e'tibor. Xorijdagi tadbirlar davomidagi muloqotlarda ularning yuz-ko'zidagi ifoda vatandoshlarimiz ko'ngidan qanday kechinmalar o'tayotganini ko'rsatadi.

Masalan, shu yil Germaniyada o'tkazilgan Navro'z saylida bir vatandoshimiz ko'zida yosh bilan besh yildan beri sumalak yemaganini



70 ta. Jamoat birlashmalari nodavlat notijorat tashkilotlaridir. Ularga a'zo vatandoshlarimizdan har birining muqim ish joyi bor, lekin iltimoz, madaniyatimiz, qadriyatlarimizni saqlash borasidagi ishlarni tashkil etishda tashabbuskor. Shu bois, mana shu jamoat birlashmalari bilan muloqot qilib, bugunga qadar 115 tasi bilan o'zaro anglashuv memorandumini imzoladik. Ular faoliyatini o'rganidik, tadbirlar tashkil etib, yaqin hamkorlik yo'lga qo'yildi. Yo'l xaritalari ishlab chiqilib, ijrosi ta'minlanmoqda.

Vatandoshlar bilan ishlashda, eng avvalo, xorijiy davlatlarning bu boradagi tajribasini ham o'rganidik. Masalan, nufusi bo'yicha yetakchi davlatlar — Xitoy va Hindiston tajribasi bilan tanishdik. Ularda migratsiya jarayoni juda yuqori. Xorijdagi xitoy yoki hindlar bilan qanday ishlar qilinganiga jiddiy e'tibor qaratdik. O'rganishlarimiz natijasida ularning ishi, eng avvalo, tili, madaniyati, urf-odat, qadriyatlarini saqlab qolishga qaratilganini kuzatdik. Mavjud qadriyatlarini keyingi avlodga yetkazib berishni maqsad qilgani — ularning asosiy muvaffaqiyati. Turli tanlovlar o'tkazib, ularni qo'llab-quvvatlaydi, doimiy muloqot qiladi. Eng muhimi, xorijdagi vatandoshlar tajribasini o'z davlati manfaatlariga jalb qilishga eng ustuvor yo'nalish sifatida qaraladi.

Bulardan kelib chiqib, biz ham ana shu jarayonlarni bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etdik. Bu — yangi yo'nalish. Xorijdagi vatandoshlarga shu paytgacha e'tibor berilmagan. Vatanga bog'lab turadigan rishtalar qanday? Ularning qalbidan aytdigan qanday gaplar bor? Bu savollar ochiq qolavergan.

O'tgan qisqa muddatda vatandoshlar uchun tez-tez ona vatanga kelish, jarayonlarda qatnashish imkoniyati yaratildi. Ularga aslida, nima kerak? Albatta, o'zgina e'tibor. Xorijdagi tadbirlar davomidagi muloqotlarda ularning yuz-ko'zidagi ifoda vatandoshlarimiz ko'ngidan qanday kechinmalar o'tayotganini ko'rsatadi.

Masalan, shu yil Germaniyada o'tkazilgan Navro'z saylida bir vatandoshimiz ko'zida yosh bilan besh yildan beri sumalak yemaganini



### Vatandoshlar bilan ishlash — har bir davlat idorasining vazifasi

Inson o'z yurtida tomir yoymog'i kerak, ammo uning nigohi butun dunyoni kuzatsin, degan gap bor. Vatandoshlarimiz qayerda bo'lmasin, o'z yurti, tili va madaniyati bilan uzviy bog'liq.



aytdi. Tadbir tashkilotchilariga minnatdorlik bildirar ekan, sumalak ta'mini qayta tuyganini, bu ta'm unga vatanimi, mahallasini eslatganini ta'kidlab, “Chexiyada shuncha ko'p o'zbek qilingan bu gap zamirida bir insonning vatanga daxldor katta sog'inchi mujassam.

Yoki yana bir misol: Chexiyada o'tgan tadbirlardan birida vatandoshimiz ilgari bunday tadbir hech qachon tashkil etilmaganini ta'kidlab, “Chexiyada asos bor, boisi, bolig'ini bilmagan ekanman. Hammamiz o'z ishimiz, tashvishimiz bilan bandmiz. Biroq bir davlatda, bir shaharda iltimoz, urf-odatlarimiz, madaniyatimiz — o'zimizni vatandoshlarimiz borligidan quvondim”, deydi. Ular O'zbekistonga kelganida “O'zgarishlar aeroportdayoq sezildi”, deya quvonmoqda. Maqsadimiz bu o'zgarishlarni, yangilanishlarni xorijdagi vatandoshlar hayotiga ham olib kirishdan iborat.

durдона”, “Xorijdagi milliy oshxonaga”, “Kun oilasi” loyihalari shular jumlasidan. Muhim sanalarga atab 20 ga yaqin onlayn tadbir tashkil etildi. Vatandoshlar bilan aloqani yanada mustahkamlash, qobiliyati va tashabbuslarini aniqlash hamda munosib taqdirlash maqsadida fondimiz turli ko'rik-tanlovlar uyushtirib kelmoqda. Xususan, “Siz O'zbekistonni bilasizmi?” xalqaro onlayn viktorinasini, “Xorijdagi eng faol vatandosh jamoat birlashmasi”, “O'zbekiston — yosh rassomlar nigohida”, “Sen turfa jilosan, aziz ona til” kabi tanlovlar doimiy o'tkazib kelinadi.

Xorijdagi vatandoshlarimizning aksariyatini bir muammo qiyinaydi: “Biz o'z tilimizni, qadriyatlarimizni saqlaymiz, biroq xavotirimiz farzandlarimizdan”. Bu xavotirda asos bor, boisi, kim qayerda yashasa, o'sha yerning mentalitetiga moslashadi, o'sha mamlakat tilida muloqot qiladi, ya'ni bog'cha, maktab, oliy ta'lim yashayotgan mamlakat tilida olib boriladi. Xullas, begona joyga singib ketadi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek “Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala — bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoviy qarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgarayapti. Bu o'zgarishlarni hamdaman ham ko'proq his etadigan kim — yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbidan doimo aks sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz, tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”.

Shundan kelib chiqib, “Qanday qilib, o'z tilimiz, urf-odat, qadriyatlarimizni saqlab qolishimiz mumkin? Bu boradagi ishlarni qanday tashkil etamiz?” kabi savollarga javob izladik. Ko'p o'rganishlardan keyin, birinchi navbatda, masofadan turib o'zbek tili darslarini yo'lga qo'ydik. Avvaliga noquvayliklar bo'ldi. Masalan, Toshkent shahrida soat 15:00 bo'lsa, AQSHda va vaqtda endi tong otayotgan, Yevropada soat 12, Yaponiyada kun botayotgan bo'ladi. Shu bois, vaqtni muayyan davlatga moslashtirish qiyin kechdi. Vaqt taqsimotini hisobga olib har bir davlat uchun alohida darslar tashkil qilib ham ko'rdik.

Shunday qilib, fondning internet saytida bitta platforma yaratish qaroriga keldik. Bu vatandoshlarimizga o'ziga qulay vaqtda istalgan makondan kirish imkonini beradi. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda platforma kontentini yaratdik. Joriy yil 15-mart kuni O'zbek tili onlayn ta'lim platformasini ishga tushirdik hamda taqdimotini o'tkazdik. B platformamizga xorijdagi vatandoshlar uchun A1 darajasini beruvchi 8 ta moduldan iborat umumiy 24 ta dars joylandi.

Xorijdagi vatandoshlar o'rtasida o'zbek tili onlayn ta'limi platformasiga qiziqish ortdi. 35 davlatdan vatandoshlar onlayn ta'lim platformasidan foydalanib keladi. Bundan tashqari, qo'shni davlatlarda taklif so'raganimizda aksariyat vatandosh o'zbek tilida badiiy adabiyotlar yetishmasligidan shikoyat qiladi. Ular o'zbek tilida asarlar o'qishni xohlaydi, biroq kitoblar yetarli emas. Biz har gal maktablar uchun alohida kitoblar olib boramiz. Xorijiy mamlakatlarda “Vatandoshlar” jamoat fondining 40 ta kitoblar burchagi tashkil qilindi.

O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasi bilan hamkorlikda vatandoshlar uchun adabiyotlar ro'yxatini shakllantiramiz. Davlat dasturiga ko'ra, bu yil 15 ming dona badiiy adabiyot taqdim qilishimiz kerak. Bugungacha o'zbek tilidagi 10

mingdan ortiq badiiy adabiyot, milliy atributlar, cholg'u asboblari, liboslar vatandoshlarga yetkazib berildi. Yetkazilgan kitoblar orqali yoshlar, bolajonlar o'rtasida tanlovlar, viktorinalar tashkil etib kelinmoqda.

Uyushma bilan hamkorlikda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikistonda Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud kunlariga bag'ishlab tadbirlar o'tkazildi. E'tiborsiz, “Vatandoshlar” jamoat fondining barcha tadbirlarida vatandoshlar alohida tayyorgarlik bilan qatnashadigan bo'ldi.

Fondimiz tashabbusi bilan xorijiy mamlakatlardagi o'zbek tilida ta'lim beriladigan maktablarda o'zbek tili va adabiyoti fanidan dars beruvchi 60 vatandosh muallim uchun yurtimizda 72 soatlik malaka oshirish kursi tashkil etildi. Kursni Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti bilan birga ishlab chiqdik.

Xorijda o'zbek tili rivojiga hissa qo'shib kelayotgan vatandoshlarning ilmiy-ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash ham asosiy vazifalarimizdan. Turkiyaning Karabuk universitetida faoliyat yuritayotgan vatandoshimiz Saidbek Boltaboyevning turk tilidagi “Alisher Navoiy devonlarining debohalarini” tarjima asari fond homiyligida chop etildi. O'zbek va tojik tillarida qildig' qanday vatandoshimiz O'Imas Jamol tavalludining 100 yilligiga bag'ishlangan “O'zim dunyo oro dunyo” nomli she'riy to'plami ham nashr qilindi. Kitobning taqdimoti Toshkent va Urgut shaharlarida, Tojikistonning Dushanbe shahrida, Xatlon, So'g'd viloyatlaridagi tadbirlarda bo'ldi.

Chet elda istiqomat qilayotgan vatandoshlarni O'zbekistonning milliy va an'anaviy urf-odatlarini bilan tanishtirish, yurtimizdagi keng qamrovli islohotlar bilan yaqindan xabardor etish maqsadida “Chinor” loyihasi doirasida nuro'niy vatandoshlar uchun Toshkent shahriga sayohat hamda Samarqand va Buxoro viloyatlarida ziyorat tashkil etildi. Xorijiy mamlakatlardagi vatandoshlarning farzandlari uchun “Anor” loyihasi doirasida Toshkent viloyatida yozgi dam olish oromgohi ochildi. Mazkur loyihalarda yoshi katta vatandoshlar yangi O'zbekiston bilan yaqindan tanishgan bo'lsa, oromgohda yurtimiz yoshlari bilan AQSH, Fransiya, Ispaniya, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikistondan kelgan yosh vatandoshlar birgalikda dam olib, do'stlashdi hamda o'tgan vaqti xotirasida bir umr qoladigan bo'ldi.

“Vatandosh olimlar” loyihasi ham vatandoshlarimiz bilan muloqot qilish, yurtimiz taraqqiyotiga hissa qo'shishga undashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, yosh oilalarning istiqbolini yo'li biz uchun, mamlakatimiz uchun muhim. Masalan, AQSHning Florida universitetida ilmiy-tadqiqot qilayotgan yoshi olim Rustamjon Murodov, Berindagi Gumbold universiteti dotsenti Ahmad Hamidov, Istanbul tijorat universiteti professori Zebunniso Kamolova, Kioto texnologiyalar universiteti dotsenti Erkin Kurbanov kabi yoshlar o'z salohiyatini mamlakatimiz istiqbolini uchun yo'naltirishni maqsad qilgan.

“Vatandoshlar” jamoat fondi huzurida tibbiyot sohasi ekspertlar kengashi faoliyat yuritadi. Fond kengash a'zolari bilan ko'plab loyihalarni amalga oshiryapti. Jumladan, ular bilan dolzarb mavzularda vebinarlar tashkil qilinmoqda. Sog'liqni saqlash tizimidagi professor-o'qituvchilar, mutaxassislar, tadqiqotchilarga bu darslar foydali bo'lmoqda. Shu kungacha 10 dan ortiq mana shunday onlayn vebinar tashkil etildi.

Inson dunyoning qaysi burchagida bo'lmasin, O'zbekiston farzandi sifatida reja va maqsadlarini tug'ilib o'sgan joyi bilan bog'lashni istaydi. Bu borada o'zimizda hali katta ishlar turibdi. Maqsadimiz davr yangilanishlariga hamohang bo'lgan xorijda yashayotgan vatandoshlarimizni yurtimizdagi islohotlarga jalb etish, O'zbekiston kelajagiga daxldorlik tuyg'usini yuksaltirish, yurtimizdan uzilib qolmaslik choralari ko'rish va ularni ona vatan atrofida birlashtirishdan iborat.



## Rishta



Shuhrat SIROJIDDINOV, akademik

Bejiz sohalar avvalida madaniyat, ilm-fan borasidagi hamkorlikni qayd etmadik. Zero, ushbu yo'nalishlar do'stlikning haqiqiy belgisi, hamkorlikning nechog'liq keng ko'lamda ekanini anglatadi. Qardosh O'zbekiston va Qozog'iston xalqlari Markaziy Osiyoning qadimiy tamadduni vorislaridir. O'z o'rnida ikki mamlakat ajdodlarining an'analari, qadriyatlari, madaniy-ma'naviy merosini asrab-avaylab kelmog'ida. Shuning o'ziyoq xalqlarimiz o'rtasidagi yaqinlik, qardoshlik rishtalari mustahkamligini ko'rsatadi.

Prezidentimizning Qozog'istonga davlat tashrifi doirasida ishbilarmonlik va madaniyat tadbirlari o'tkazildi. Jumladan, Qozog'iston davlatining bosh kenti — Ostona shahrida buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy haykali ochildi.

Hazrat Alisher Navoiy turkiy xalqlarning iftixori. Umri turkiy til rivojiga, turkiy dunyo uchun yaxlit yagona adabiyot va san'at makonini yaratishga bag'ishladi va bunga erishdi. Uning asarlari mana besh asri, turkiy xalqlar milliy g'ururining yuksalishiga, yagona madaniyat negizida jipslashishiga xizmat qilmoqda. Turkiy xalqlar o'rtasidagi adabiy aloqalar hech qachon uzilmagani ham Navoiy kuylab o'tgan turkiy ruh tufaylidir.



## O'LJASIM, JO'LDASIM, DO'STIM, QAROG'IM

## DO'STING KO'P BO'LSA, YO'LING RAVON BO'LADI

O'zbekiston qisqa muddatda ochiq, do'st mamlakat qiyofasini yaratadi. Ayniqsa, qo'shni, qardosh mamlakatlar bilan aloqalar yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, Qozog'iston bilan madaniy-gumanitar, tashqi savdo, o'zaro investitsiyalar, kooperatsiya aloqalari kengaydi. Natijada madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida ilgari foydalanilmagan hamkorlik salohiyati faol ro'yobga chiqmoqda.

O'tgan asrning 80-yillarida xalqaro adabiy maydonda juda katta shov-shuvlarga sabab bo'lgan, 100 ming nusxada chop etilib, keyin barcha do'konlardan yig'ishtirib olingan "Az i Ya" asari so'nggi 8 yilda 2 marotaba: shoir Yo'ldosh Eshbek hamda turkolog Baxtiyor Isabek tomonidan tarjima qilindi. Bu ikki xalq ijodkorlarining fikran g'oyadosh va maslakdosh bo'lganini ko'rsatadi.

Muxtor Avezov va Sobit Muqonov singari buyuk qozoq shoirlari hamda mashhur o'zbek adiblari Oybek va G'afur G'ulom o'rtasidagi qalin do'stlik haqida adabiyot ahli orasida ko'plab xotiralar bor. So'nggi vaqtlarda mamlakatlarimiz rahbarlarining

tiliga tarjima qilindi. Ushbu drama O'zbek milliy akademik drama teatri oltin fondidan joy oldi.

Bugun ham O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida adabiy an'analar davom etmoqda. Adabiyot atalmish qalb ovozi barcha xalqlarda hamohang. Mana shu hamohanglik tufayli ikki xalqning maqsadlari, orzulari



mushtarak. Ular bahamjihat taraqqiy etish, do'stlik rishtalarini mustahkamlash, inson ma'naviy, ruhiy kamolotiga xavf solayotgan ma'naviy tahdidlarni bartaraf etish yo'lida dadil bormoqda.

Qozog'istonga tashrif chog'ida ikki mamlakatdagi yetakchi oliy ta'lim muassasalari — Olmaotada "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti hamda Chirchiqda Muxtor Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti filiallari ochilishi ta'kidlandi. Demak, ikki mamlakat o'rtasidagi ilm-fan sohasidagi hamkorlik yanada mustahkamlanadi.

siyosiy irodasi tufayli o'zbek va qozoq xalqlari o'rtasidagi aloqalar o'zining yuksak bosqichiga ko'tarildi. Shu jumladan, adabiy aloqalar ham.

Davlatimiz rahbarining "Buyuk qozoq shoiri va mutafakkiri Abay Qo'nonboyev ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, Abayning "Saylanma"si chop etildi. "Abay va o'zbek adabiyoti" nomli doimiy ekspozitsiya tashkil qilindi. O'quvchilar o'rtasida muntazam "Abay asarlarining bilimdoni" ko'rik-talovi o'tkazib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan 100 jildlik "Turkiy adabiyot durdonalari" nashr etildi. Ushbu muhtasham

kulliyotning 10 jildi Abay, Jambul, Muxtor Avezov, Qalmaqon Abduqodirov, Sobit Muqonov, O'ljas Sulaymon, Anvar Olimjonov, G'abit Musrepov, Abish Kekilboyev, Jo'bon Mo'ldag'aliyev, Mug'ali Maqotoyev, Tumanboy Mo'ldag'aliyev, Muxtor Shoxonov kabi yetuk qozoq adiblarining asarlarini qamrab olish bilan birga, zamonaviy qozoq she'riyati va nasrining yuzga yaqin vakillari asarlarini o'z ichiga olgan.

Qozog'istonda ham o'zbek adabiyoti targ'ib qilinmoqda. 2020-yilda taniqli qozoq shoiri Nasipbek Aytuli "Xamsa"ning "Layli va Majnun" hamda "Saddi Iskandariy" dostonlarini qozoq tiliga tarjima qildi. To'rali Xidir Sulaymoniy fondida saqlanayotgan nodir qo'lyozmadan foydalanib, "Muhokamat ul-lug'atayn" asarini qozoq tiliga tarjima qildi.

Navoiyning Ostona qad ko'targan haykali qozoq xalqining turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqi madaniyati va qadriyatlariga chuqur ehtiromi ramzi sifatida katta ahamiyatga ega. Bunday yondashuv ikki buyuk davlat va qondosh ikki xalqning rivojlanish bosqichida bir-biriga yelkadosh bo'lishini anglatadi. 2022-yil 22-dekabr kuni O'zbekiston va Qozog'iston Prezidentlari uchrashuvida Ostona Navoiy haykalini o'rnatish bo'yicha qaror qabul qilingan edi.

Haykaltarosh Jasvat Annazarov tomonidan bronzadan yasalgan haykalning balandligi 4,5 metr, umumiy balandligi poydevori bilan 8,5 metrga teng. Buyuk bobokalonimiz haykali Tokio, Shanxay, Vashington, Moskva, Minsk, Boku, Moxori Sharif, O'sh, Dushanbe, Seul kabi shaharlarda ham qad rostlagan.

Navoiy e'zozlagan xalqlar bir-birini e'zozlashiga ishonamiz. Navoiy haykali yosh

avlodlarning kamolot yo'lida mayoq bo'lib, ota-bobolarimizning shonli yo'lini eslatib turishi shubhasiz.

O'zbek tili va adabiyoti sohasida pedagoglar tayyorlashga mo'ljallangan darslik yaratgan edik. 2022-yildan buyon mazkur darslik Chimkent shahridagi nufuzli universitetda o'qitib kelinadi. Qolaversa, joriy yilda buyuk shoir va mutafakkir, davlat arbobi hayoti va faoliyati bilan bog'liq ilk qo'lyozma manbalar asosida "Amir Alisher" nomli kitobimiz qozoq tiliga tarjima qilindi.

Bugun ma'naviy tozalanish har qachongidan ham muhim. Shu jarayonda adabiyotning o'rni beqiyos. Xalqaro aloqalarni mustahkamlashda adabiyotga, kitobxonlikka davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotganining boisi ham shunda.

Tarix, san'at va adabiyot millat ruhi, g'ururi, tafakkurini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini o'zida aks ettiradi. Qadim madaniyat, yuksak ma'naviyatimizni adabiyot orqali jahon xalqlariga tanishtirish o'zbek xalqining buyuk millat sifatidagi tarixiy maqomini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi o'zaro aloqalar bugun xalqaro maydonda ham ishonchli, muhim va uzoq muddatli hamkorlik namunasini sifatida e'tirof etilmoqda. Bunday hamkorlik asosida, eng avvalo, xalqlar birdamligi, fuqarolarning bir-biriga ishonchi va do'stona munosabati hamda qon-qarindoshlik rishtalari mustahkamlanishi turadi. Qozoq xalqida bunday maqol bor: "Dosyn kop bolsa, jolydz da ashylady". Ya'ni "Do'sting ko'p bo'lsa, yo'ling ham ravon bo'ladi". Xalqlarimiz o'rtasidagi do'stona aloqalar yorug' kelajakning ravon yo'li boshlanayotganidan dalolat.

## Madaniyat

Talabalik kezlarimiz yotoqxonada qozoq dugonalarimizning bir-biridan ajoyib milliy taomlarini tatib ko'rganmiz. Aksariyati Toshkent viloyatida yashar, har hafta uylariga borib kelardi. Kursdosh dugonalarini navbat-navbatdan mehmonga ham olib ketishardi. Tabiiyki, ularga havas qilardik. Shuningdek, o'shanda bu millat vakillarining ko'ngli ham, qo'li ham ochiqligiga amin bo'lganmiz. Shu jihat bilan qozoq xalqi bizga juda o'xshaydi. Aslida, bu qardoshlikning belgisi!

Qozog'iston xalq assambleyasi raisi o'rinbosari Marat Azilxonovning "Qozoqlar va o'zbeklar bir-biri bilan yonma-yan yashagan. Ular doimo bir-biriga alohida mehr bilan qarab, asrlar mobaynida bir-birini qo'llab-quvvatlagan. Hozir ikki xalq ham o'tmishdagi milliy qadriyatlar, ilmiy-adabiy aloqalari va tajribalarini o'zlashtirib, zamonimizga mos ravishda o'zining yangi

qirralarini namoyon etmoqda", deb bejiz aytmagan edi. Ha, xalqlarimizni milliy madaniyatimiz mushtarakligi yanada yaqinlashtiradi.

Mamlakatimizda qozoq millatiga mansub bir milliondan ortiq yurtdoshimiz bor. Respublikadagi 370 ta maktabda (138 tasi aralash maktab) qozoq tilida dars beriladi. Ushbu maktablarga esa Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti va boshqa OTMlarda yosh kadrlar tayyorlanmoqda. Bundan tashqari, to'qqizta qozoq madaniy markazi ishlab turibdi. O'z navbatida, Qozog'iston janubida o'zbek millatiga mansub yarim milliondan ziyod aholi yashaydi. Bu, albatta, qardosh xalq vakillari bilan azaliy do'stligimizning hayotiy ifodasi.

Shu yil Xiva shahrida bo'lib o'tgan Lazgi festivalida Qozog'istondan kelgan olimlar, san'at sohasidagi insonlar, madaniyat xodimlari bilan yaqindan



hamsuhbat bo'ldik. Jumabek Tashenev nomidagi universitet katta o'qituvchisi Ozoda Musayeva bilan esa anchagina

yaqin bo'lib qoldik. Ketar chog'imiz opa bilan hamkorlikni uzmaslikka kelishdik. Ozoda opa festival doirasidagi xalqaro

konferensiyada ilmiy ma'ruza qildi. U ma'ruzasida millatlararo totuvlik va hamkorlikni mustahkamlashda lazgining o'rni ta'kidlandi.

Qozog'istonlik mehmonlar o'zbek milliy madaniyatini Chimkent shahrida keng targ'ib qilayotgan 13-umumta'lim maktabini ham alohida tilga oldi. Maktabda tashkil etilgan "Bahor" raqs dastasi Turkiston viloyatidagi eng mashhur ansambllardan biri. Ansamblda lazgi raqsining yakka hamda jamoaviy ko'rinishlari katta mahorat va o'ziga xos ifoda usullari bilan sahnalashtirilgan. Ularning milliy san'atimizni sevishini, lazgini mahorat bilan ijro qilishini ko'rib beixtiyor faxrlanasiz.

Janubiy Qozog'iston — eng ko'p raqs va musiqiy dastalar, ansambllarga ega yirik hudud. Respublikada xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, Xalqaro Amir Temur jam'armasining Qozog'istondagi rahbari Ikromjon Hoshimjonov ko'plab madaniy-

ma'rifiy tanlov va tadbirlar tashabbuskori. Mamlakatda u rahbarlik qilayotgan "Do'stlik" hamjamiyatining nufuzi baland. Hamjamiyatning millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlashga alohida hissa qo'shayotganini bir necha yildan beri Chimkent shahrida o'tkazilayotgan "Navoiy izdoshlari" an'anaviy respublika ko'rik-talovi misolida ham ko'rish mumkin. O'zini o'zbekman degan har inson bu bilan cheksiz faxr tuyadi, ma'naviy merosdan g'ururlanadi.

Qozog'istonlik do'stlarimiz bilan har gal aloqa bog'laganimda, o'sha talabalik yillaridagi quvnoq, ko'ngli ochiq, mehmondo'st dugonalarimiz yodimga tushadi. Quvonarlisi, ular ham shu yurtda, shu elga munosib farzandlarni kamolga yetkazdirdi. Shuning o'ziyoq ikki xalq et va tirnoqday ajralmas bo'lib ketganidan dalolat.

Yana bir muhim jihat. San'at, madaniyat va adabiyotni ko'ngil ishi deyishadi. Ha, ijod yurak qoni va qalb mehri bilan qorishiq bo'ladi. Shu bois, insonlar o'rtasida san'at, madaniyat sabab o'rnatilgan rishta boshqalarga nisbatan mustahkamdir. Shu ma'noda, xalqlararo, davlatlararo madaniy aloqalar umuminsoniy fazilatlarini tarannum etadi.

Munojat MO'MINOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 2698.  
41126 nusxada bosildi.  
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.  
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.  
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Bekkul Egamqulov  
Musahhir: Malohat Mingboyeva  
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy